Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

1930–2025 95 yilligi

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2025-yil 27-mart
payshanba

№ 13 (4707)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

VATAN ICHRA VATAN



11

USHBU SONDA:


YAXSHI SHOGIRD USTOZNING YUZI



7



9



HAMISHA OLG‘A INTILIB

21

O‘ZBEKISTON XABARLARI

UNVONLAR SONI YANA BITTAGA KO‘PAYDI

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ekolog» faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, ushbu unvon mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini rivojlantirish, tabiatni asrab-avaylash, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash borasida salmoqli natijalarga erishgan ekofaollarga beriladi.

Shuningdek, unvon ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik madaniyatni oshirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda fidokorona mehnat qilgan mutaxassislar va ekofaollarga ham taqdim etiladi.

TIBBIY KO‘RIKDAN O‘TKAZILADI

Senatning beshinchi yalpi majlisida «Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida»gi qonunga qamoqqa olinganlarga nisbatan qiynoqqa solish hollarining oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish haqida»gi qonun ko‘rib chiqildi.

Muhokama qilingan mazkur qonunda qamoqqa olinganlar tergov hibsxonasiga joylashtirilishidan oldin o‘sha yerning o‘zida majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi kafolatlari yanada mustahkamlanishiga, davlatimizning inson huquqlari ta’minlanishi bo‘yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi nufuzi oshishiga xizmat qiladi.

CHIQINDILAR QAYTA ISHLANADI

Prezidentimizning «Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoniga binoan, Namangan va Toshkent viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni termik usulda yoqish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 19,87 gektar sug‘oriladigan yer uchastkalari sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkaziladi.

QAROR LOYIHASI E’LON QILINDI

Yo‘llardagi qoidabuzarliklar uchun jarima ballari to‘g‘risidagi qaror loyihasi e’lon qilinib, muhokamaga qo‘yildi. Unga ko‘ra, jarima ballari haydovchilarga nisbatan faqat Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnomalar asosida hisoblanadi. Shuningdek, mazkur loyihada jarima ballari belgilanadigan qoidabuzarliklarning turlari ham sanab o‘tilgan.

QAROR VA IJRO

«DO‘RMANCHA»DA OSOYISHTA VA XAVFSIZ MUHIT YARATILYAPTI

Bag‘dod tumanining «Do‘rmancha» mahallasi jinoyatchilik salmog‘i yuqori bo‘lgan, kriminogen vaziyat og‘ir hudud sanalardi. O‘g‘rilik, tan jarohati yetkazish va giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar tez-tez sodir etilgani bois avvalgi yillarda «qizil» toifaga kiritilgan edi.



Joriy yilning o‘tgan davrida vaziyat tubdan ijobiy tomonga o‘zgardi.

– Uch ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladigan mahallamizda dehqon bozori, kiyim-kechak bozori, mol bozori, shuningdek, yana o‘nlab savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari joylashgan, – deydi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Ulug‘bek Bektemirov. – Bu yerga tuman aholisi bilan birga, qo‘shni Rishton, Oltiariq, Uchko‘prik, Buvayda tumanidan ham savdo-sotiq uchun kelishadi. Ayniqsa, mol bozori juda gavjum bo‘lib, jinoyatchilik ham ushbu bozorlar hissasiga to‘g‘ri kelardi. Jinoyatlarning sabablariga ilmiy jihatdan yondashib, uni jilovlashga qaratilgan yo‘l xaritasi asosidagi sa’y-harakatlarimiz samarasi o‘laroq mahallamiz bugunda «qizil»dan «yashil» toifaga o‘tdi.

Katta inspektorning qayd etishicha, birinchi galda mahalla yettiligining ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlari o‘tkazildi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan avtomatlashtirilgan tartibda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida voyaga yetmaganlar, xotin-qizlar, tarbiyasi og‘ir yoshlar hamda probatsiya hisobida turgan shaxslar bilan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi. Muqaddam sudlangan va ma’muriy nazoratdagi shaxslar bo‘yicha «xonadonbay» ishlar tashkil etilib, 5 nafar ma’muriy nazoratdagilardan 2 nafarining ijtimoiy muammolari hal etildi, 3 nafari ishga joylashtirildi. Raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilib, bozorlar, savdo do‘koni va rastalarga 25 ta kamera o‘rnatildi. Ulardan 15 tasi profilaktika katta inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilindi.



Bundan tashqari, mahallalarning asosiy kirish-chiqish joylariga 3 ta yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarining kirish-chiqish joylariga esa 2 ta kamera o‘rnatildi, 5 ta xonadon hamda 4 ta savdo do‘koni qo‘riqlash xizmati tomonidan texnik qo‘riqlovga olindi. Ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari oldiga 2 ta tashvish tugmasi qo‘yildi.

– Hozirda «Namunaviy xavfsiz ko‘cha» hamda «Namunaviy xavfsiz yo‘lak» tashkil etish bo‘yicha ham jadal ish olib boryapmiz, – deydi katta inspektor. –Davlatimiz rahbarining o‘z vaqtida, uzoqni ko‘zlab chiqargan qarori yillar davomida kriminogen vaziyat og‘ir hudud sanalgan bizning mahallamizga chin ma’noda yangi nafas olib kirdi, osoyishta va xavfsiz manzilga aylantirdi.

Ma’lumot uchun, do‘rmanchaliklarning haqiqiy himoyachisi va maslahatgo‘yiga aylangan podpolkovnik Ulug‘bek Bektemirov Oltiariq tumanida tug‘ilib o‘sgan. Ichki ishlar organlaridagi orttirgan 25 yillik boy amaliy tajribasini yosh xodimlarga baholi qudrat o‘rgatib kelyapti.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

PROFILAKTIKA XIZMATI

MAHALLA «YASHIL» TOIFAGA O‘TDI

Urganch shahridagi «Al Xorazmiy» mahallasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, bu yo‘nalishda hamkorlikdagi ishlarni tizimli tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan «Yo‘l xaritasi» asosida kam ta’minlangan, notinch va nizoli oilalar, huquqbuzarlik sodir qilishga moyil shaxslar, farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar, uyushmagan yoshlarning ro‘yxatlari shakllantirilib, mahalla faollari, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari vakillari bilan hamkorlikda manzilli profilaktik-tushuntirish ishlari olib borilyapti.



– Hozirda 7 nafar shaxs profilaktik hisobga olingan bo‘lib, ularning turmush tarzi doimiy nazorat qilib borilyapti, – deydi shahar IIOFMB 26-huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, mayor Sirojbek Shokirov. – Mahalla faollari bilan hamkorlikda 2 ta notinch, 1 ta ajralish yoqasiga kelib qolgan oilada sog‘lom muhit yaratildi. 9 nafar fuqaro doimiy hamda vaqtinchalik ish o‘rniga ega bo‘ldi. Shuningdek, turli masalalar bo‘yicha murojaat qilgan 22 nafar fuqaroning so‘rov va istaklari ijobiy hal etildi. Muhimi, profilaktik tadbirlar natijasida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi va mahallamiz «yashil» toifaga kiritildi.

Mahalladagi ichki ko‘chalarning kirish-chiqish joylariga, tibbiyot hamda ta’lim muassasalariga, tadbirkorlik subyektlariga, shuningdek, jamoat joylariga o‘rnatilgan 47 ta videokuzatuv kamerasi soz holatda ishlab turibdi. Shuningdek, avtomobil davlat raqami hamda fuqarolar yuzini tanib oluvchi maxsus kuzatuv kamerasidan foydalanish ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu mahallaga kelib-ketuvchi shaxslar va transport vositalarini kunning istalgan vaqtida nazorat qilish imkonini beryapti. Qolaversa, ushbu innovatsion qurilmalar yordamida turli ko‘rinishdagi huquqbuzarlik holatlari aniqlanib, qonunbuzarlarga nisbatan belgilangan tartibda ma’muriy choralar ko‘rilmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

«Postda-На посту» газетаси ташкил этилганининг 95 йиллиги олдидан

ДИҚҚАТ, ТАНЛОВ!

Ўзбекистон Республикаси ИИВ нашри – «Postda-На посту» газетаси 1930 йил 12 майда ташкил этилган эди. Газета жамиятимизда демократик қадриятларни қарор топтириш, халқимизнинг ҳуқуқий онгини юксалтириш, ички ишлар органларининг фаолиятини, тизимда амалга оширилаётган ислоҳотларни ёритишдек эзгу мақсад йўлида хизмат қилиб келяпти.

Азиз муштарийлар! Севимли газетангиз ташкил топганининг 95 йиллиги муносабати билан ИИВ Бирлашган таҳририяти **«Postda-На посту» – менинг тақдиримда»** номли мақолалар танловини ҳамда **«Postda-На посту» – оилавий газетамиз»** номли видеороликлар танловини эълон қилади.

Мақолалар танловига «Postda-На посту» газетаси билан боғлиқ қизиқарли воқеаларга асосланган 3-5 варақ ҳажмидаги мақолалар, видеороликлар танловига эса 3 дақиқагача давом этадиган видеороликлар қабул қилинади.

Мақола ва роликларни @postda_muloqot телеграм гуруҳимизга жўнатинг.

Қатнашувчиларнинг ёши, касби, ижтимоий мавқеи чегараланмаган. Танловга материаллар жорий йилнинг 20 апрелига қадар қабул қилинади. Голибларни қимматбаҳо эсдалик совғалари кутмоқда!

Қуйида танловга келган илк мақола билан танишинг

ЎЗИМИЗНИНГ ГАЗЕТА

Тахминан 1970-йиллар эди. «Постда» газетасини илк маротаба мактаб ёшимда ўқиганман. Куз эди ўшанда. Йўл ёқасида автобус кутиб тургандим, тўғримда қаймоқранг «Жигули» тўхтади. Қарасам, ички ишлар органларида хизмат қиладиган маҳалладошимиз. У «Чиқ, шаҳаргами?» деди. Автоуловга ўтиришим билан гапга солди, баҳоларим, отамнинг ишлари билан қизиқди.

Бироз суҳбатлашгач, «Жигули»нинг олд ойнаси бурчига қистирилган газетани кўрсатганча сўрадим: «Ўқисам бўладими?». Ички ишлар органлари ходимларининг фаолиятидан сўзловчи лавҳа ва суратлар билан тўлиб-тошган газетани варақларканман, бир жиноятнинг фош этилишига оид мақола эътиборимни тортди. Воқеа баёни чўпоннинг шамол томирларини очган юлғун остидан инсон суякларини кўриб қолиши билан бошланганди...

Ўқиётганимни тугата олмадим, Тошкентга етиб келгандик. Маҳалладошим истагимни кўзларимдан сезди, шекилли, жилмайганча: «Олавер», деди. Уйга қайтишим билан газетани яна қўлимга олдим...

Табиийки, чўпон даштда учратган инсон танаси қолдиқлари ҳақида ички ишлар органига хабар беради. Воқеа жойига етиб келган соҳа вакиллари сўнгакларнинг аёл кишига тегишли эканини аниқлайди. Марҳумнинг сифатли теридан тайёрланган ва унчалик зиён етмаган.

Сумкасидан топилган талабалик билети ҳамда автобус паттаси аёлнинг шахсига аниқлик киритиш учун хизмат қилади. Маълум бўлишича, 20 йилча илгари ҳудуддаги чекка қишлоқда яшаган талаба йўқолиб қолган. Аммо қизни топишга қаратилган уринишлар самара бермайди. У пойтахтдаги олий ўқув юрти ётоқхонасидан чиқиб, уйига кетган, аммо яшаш жойига етиб бормаганди.

Жиноят қидирув бўлими ходимлари архив ҳужжатларини кўтариш йўли билан автобус паттаси рақами орқали воқеа рўй берган куни талаба чиққан автобус ҳайдовчисининг кимлигини аниқлашга муваффақ бўлишади. Бу пайтда у пенсияга чиққан, бир қанча набираларнинг бобоси эди.

Уйига кириб борган ички ишлар органлари ходимларини чол: «Сизларни 19 йилдан бери кутаётгандим», деган сўзлар билан қарши олади. Тергов давомида у воқеани борича сўзлаб беради. Маълум бўлишича, ўша куни ҳайдовчи автобусидаги йўловчиларни турли манзилларда бирма-бир қолдирган. Бахтга қарши, талаба автобуснинг энг сўнгги бекатида тушиши керак эди.

Қиз билан ёлғиз қолган ҳайдовчининг кўнглига шайтон оралайди. У автоуловни йўлдан бироз четлатиб, юлғунзор бўйида тўхтатади. Жабрланувчи унга қаттиқ қаршилик кўрсатган, бироқ жисмонан бақувват эркак ниятига етмагунча тинчимайди. Жиноятчи чалажон талабани тирик қолдириш хавфли эканлигини, ундан қутулмаса, эртага борар жойи қамоқхона бўлишини яхши тушунарди.

Шу боис уни бўғиб ўлдиради ва юлғун остига кўмади.

Воқеа юз берганидан бир ҳафта ўтгач, қизнинг йўқолгани аён бўлади ва ички ишлар органлари ходимлари уни қидира бошлайди. Соҳа вакиллари ҳайдовчи билан ҳам гаплашишади. Лекин гумон қилинувчи қизни кўрмаганлигини билдиради. Қисқаси, жиноят очилмай қолади.

Қилмишларини сўзлаб берган қария виждон азоби юрагини эзиб юборганини, кўп бора айбини тан олмоққа чоғлангани, аммо қўрқув бундай йўл тутишига монелик қилганини, охирги пайтларда талаба қиз тушига тез-тез кираётганини тан олади...

«Постда» билан илк танишувимиз шундай кечган. Ички ишлар органлари ходимлари сафидан жой олганимдан сўнг газета бошқа ҳамкасбларим қатори маънавий ҳаётимнинг бир бўлагига айланди.





Ғайрат ҚОДИРОВ,
Жиззах вилояти ИИБ бошлиғи, генерал-майор.

Мазкур нашр тизимдаги янгилик ва ўзгаришлардан, осойишталикни таъминлашни ҳаётининг мазмуни, деб билгувчи илғор хизматдошларимиз жасоратини элга танитадиган энг асосий манбадир. Севимли газетамизнинг соҳа нуфузини ошириш, аҳолининг ички ишлар органлари ходимларига бўлган ишончини мустаҳкамлаш борасидаги ўрни беқиёс.

«Postda - На посту» газетасининг 47 йиллик ўқувчиси сифатида яна шуни сезаманки, ИИВ Бирлашган таҳририятининг бугунги жамоаси журналистиканинг тезкорлик, холислик, аниқлик каби мезонларига қатъий амал қилган ҳолда, ҳар бир сўзнинг масъулиятини ҳис этиб, меҳнат қилмоқда. Жумладан, муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида амалга оширилаётган ислоҳотлар, хусусан, ички ишлар органларида кечаётган ўзгаришлар газета саҳифаларида ёрқин ифодасини топмоқда.

Таъкидлаш жоизки, «Postda-На посту» газетаси обуначилари сони ҳамиша юқори бўлган. Ҳатто, онгларни ижтимоий тармоқ эгаллаб олган бугунги кунларда ҳам соҳамиз нашри ўз мақомини йўқотмади. Табиийки, бунинг замирида таҳририят ходимлари, журналистларнинг маҳорати, асосийси, ИИВ раҳбариятининг газетага бўлган эътибори мужассам. Бу йил 12 майда севимли нашримизнинг 95 йиллиги нишонланаркан, таҳририятнинг ижодий жамоасига улкан муваффақиятлар тилайман.

BIZ – KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

Korrupsiya jinoyat turi eramizdan avvalgi davrlarda Vavilon, Hindiston, Eron, Misr kabi mamlakatlarda rivojlanganligi qayd etilgan. Afsuski, bu illatni tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto bugungi eng rivojlangan g‘arb va sharq davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lgan deb ishonch bilan ayta olmaymiz. Ammo jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish dunyodagi barcha davlatlarda hamisha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ASR VABOSI

O‘rta asrlarda amaldorlarning pora olishi Usmoniylar xalifaligini ham zaiflashtirib qo‘ygan. Chunki xalifa saltanatda turli idoralar faoliyatini o‘zi nazorat qilmasdan, bu ishni vaziriga yuklagan. Natijada bu holat amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyotini shakllantirdi. Mashhur bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiya ekanligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda korrupsiyaning mansab vakolatini suiste’mol qilish, poraxo‘rlik, mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik munosabatlari kabi ko‘rinishlari jamiyatimizning sog‘lom rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Ommaviy axborot vositalarida deyarli har kuni qaysidir amaldorning pora bilan ushlanganligi to‘g‘risida xabarlarni ko‘rishimiz mumkin. Ammo shunga qaramay ushbu illat jamiyatimiz hayotidan butunlay yo‘qolib ketmayapti.

2025-yil 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari «Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi», – deya alohida ta’kidladi.

Yig‘ilishda vazirliklarning hududiy komplayens xodimlarini bevosita vazirning o‘zi ishga qo‘yishi, o‘ziga siyosiy mas’uliyat olib, butun tizimidagi korrupsiya uchun shaxsan javob berishi belgilandi.

Yig‘ilish keskin tanqidiy ruxda o‘tkazilib, unda prokuratura, ichki ishlar organlari, sudlar faoliyati, korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining ishi ham juda sustligi, profilaktika inspektorlari faoliyatiga baho berilmayotganligi kabi kamchiliklar bayon etilib, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi.



G‘aybulla ALIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi.

QILMISH – QIDIRMISH

XOMTAMA HIYLAGARGA AYLANAR

Dono xalqning shu kabi ajoyib naqllari bor. Har biri xo‘p topib, bilib aytilgan maqollardir. Ayni keltirilgan naql ham tama kishini firibgarlik sari yetaklashini uqtirmoqdaki, bu illat yaxshi natijaga olib bormasligiga hayotda ko‘p duch kelganmiz. Hiylagar odam pulning bir hidini oldimi, nafsi besh panjasini og‘ziga solishgacha undaydi. Vaholanki, beshala panja solingan og‘iz, axiyri, yirtilishi mumkinligini ajdodlarimiz ko‘p bor uqtirishgan.

Termiz shahrida yashovchi Ulg‘o‘zi Safarova ham shunday ko‘yga tushdi. U oldin ham bir-ikki kishini aldab, firibgarlik bilan sudlanganiga qaramay, tirikchilik qilish bahonasida yana eski hunarini ishga solishga qaror qiladi.

Pulsizlik tinkasini quritgan ayol halol yo‘l bilan ishlashni emas, makr-hiyla ishlatib, mo‘may daromad topishni maqsad qiladi. Dastlab u Termiz shahridagi «Termiz Baqtriya» savdo do‘koniga kelib, do‘kon egasidan bolalar kiyimlarini o‘zi ishlaydigan muassasadagi o‘qituvchilarga sotib kelishini aytib, yolg‘on gaplar bilan kiyimlarni olib ketadi. So‘ngra hammasini sotib, pulini o‘z ehtiyojlari uchun ishlatib yuboradi.

Ulg‘o‘zi bir-ikki marta shunday mayda ish bilan shug‘ullangach, endi kattaroq baliqlarni ilintirish payiga tushadi. U universitetda ishlaydigan bir tanishiga temir yo‘l vokzalida kattaroq tanishlari borligini, agar biror tanishi ishga kirmoqchi bo‘lsa, bemalol gaplashib berishini aytadi. Oradan 2 kun o‘tib, tanishining bir hamkasbi – Xolid Mallayev qo‘ng‘iroq qilib, uni temiryo‘lga ishga kirgizib qo‘yishini so‘raydi. Ulg‘o‘zi bu qo‘ng‘iroqdan keyin yangi hiylalar o‘ylab topa boshlaydi va X.Mallayevni temiryo‘l vokzaliga chiptachi qilib ishga kirgizib qo‘yishini aytadi. Lekin buning uchun «soqqasini» berish kerakligini qistirib, o‘zining plastik kartasiga 4 million 800 ming so‘m pul mablag‘ini tushirtirib oladi. Keyinroq esa 3 million 800 ming so‘m pullarni plastik kartasiga tashlatib olib, kamiga X.Mallayevdan 300 AQSH dollari miqdoridagi pullarni ham avrab undiradi.

Soddalik qilgan X.Mallayev uning gaplariga ishonib, aytgan summasini o‘ylamay-netmay olib kelib firibgarning qo‘liga tutqazaveradi. Lekin oradan qancha vaqt o‘tsa hamki, na ishdan, na bir yangilikdan xabar bo‘lmagach, X.Mallayev unga qo‘ng‘iroq qilishni boshlaydi. Ulg‘o‘zi esa uning qo‘ng‘iroqlariga javoban, turli bahonalarni o‘ylab topib, axiyri, g‘oyib bo‘ladi.

Pullarni o‘z ehtiyojlariga istagancha ishlatib bo‘lgach, bu hiylasini u X.Mallayevga o‘xshagan yana besh kishiga o‘tkazadi. Biridan 39 million so‘m, biridan 6 million so‘m, yana biridan 3 million so‘mdan ortiq pul mablag‘larini ayyorlik bilan o‘zlashtirib olib, shu bo‘yi qaytarib bermaydi.

O‘rta yo‘lda ishga kiraman deganlar aldanib, pullariga kuyib qolaverishadi.

Avvalgi xatolaridan xulosa chiqarmagan Ulg‘o‘zining firibgarligi oshkor bo‘lgach, qonun oldida javob berishiga to‘g‘ri keldi.

Feruz ALIBOYEV,
mayor,
Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

KECHA VA BUGUN





Namangan viloyati Uychi tumani IIB binosining avvalgi va hozirgi ko‘rinishi.

■ Республика Каракалпакстан

ИСТОРИЯ ТРУЖЕНИЦЫ ТЫЛА

Вторая мировая война стала одной из самых разрушительных трагедий в истории человечества. Победа ковалась не только на передовой, но и в тылу. Здесь наравне со взрослыми трудились и дети войны.

Одной из них была жительница Каракалпакстана Раушан Самарканова.

Родилась она в 1930 году в ауле № 5 колхоза «Кизил дехкон» Кунградского района. В те годы коллективизация подходила к концу, жизнь постепенно входила в привычное русло. Однако началась война. Мужчин аула мобилизовали на фронт. Ее отец, Самаркан Науризов, из-за проблем со здоровьем не был призван в армию, но в 1942 году его направили на работу в Челябинск, где он трудился на тракторном заводе, а затем в шахте. Дома остались Раушан, ее мать и младший брат Жаксилик.

– Учились мы в первую смену, а после уроков шли на сельскохозяйственные работы, – вспоминает Раушан Самарканова. – Девиз «Все для фронта, все для победы» звучал в каждом доме. Даже дети чувствовали ответственность за общий результат.

Когда весной местная река выходила из берегов, детей привлекали к строительству дамбы.

– Мы вставали в длинную цепочку. В подол платья нам насыпали лопатой грунт – больше мы просто не смогли бы унести. Нужно было подняться на дамбу и высыпать землю, – рассказывает героиня очерка.

В 1943 году аул оказался в зоне затопления, и жители были вынуждены переселиться. Условия жизни стали еще тяжелее – семья два года ютилась в землянке.

– Помню, как мы жались к маме, когда на потолке появлялись змеи или скорпионы, – говорит она. – Только после возвращения отца и постройки нового дома смогли переселиться в нормальное жилье.

Труд лучших работников отмечался грамотами и ценными подарками – продуктами или отрезом ткани. Раушан Самаркановна в юном возрасте несколько раз получала такие награды.



– Однажды во время ночного полива хлопчатника я увидела, что вода не поступает на поле, – вспоминает она. – Решив выяснить причину, пошла вдоль арыка. Вдруг провалилась в трясину и начала погружаться в нее. Сил выбраться не хватало, но, к счастью, люди услышали мои крики и подоспели на помощь. Позже выяснилось, что арык изменил направление из-за норы полевых мышей. Сейчас даже не знаю, как нам удалось пережить то время. Думаю, вера в справедливость и надежда на лучшее придавали нам силы.

В 1947 году Раушан Самаркановна вышла замуж за Кудайбергена Муминова. Через год его призвали в армию. Он служил в Кёнигсберге, затем учился в офицерском училище и работал в системе МВД. Впоследствии стал одним из основателей службы пожарной безопасности Каракалпакстана, дослужившись до звания подполковника.

Заслуги Раушан Самаркановой были высоко оценены. Она награждена медалями «За доблестный труд» и «Шуҳрат».

Супруги вырастили троих детей. Старшая дочь Роза работала в сфере торговли, Жаксибике посвятила себя дошкольному образованию, а сын Сабит продолжил дело отца, став подполковником.

Сегодня Раушан Самарканова окружена любовью и уважением большой семьи, в которой уже более двадцати внуков и правнуков. Ее история – свидетельство стойкости и беззаветного труда ради будущих поколений.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Постановление и его исполнение

■ Андижанская область

Постановлением Президента Республики Узбекистан от 3 января 2025 года предусмотрено критическое обсуждение состояния профилактической работы, проводимой в махаллях.

Совещание, проходившее под председательством прокурора области Муродулло Абдухакимова и начальника УВД полковника Санжара Джабарова, с участием руководителей правоохранительных органов, представителей государственных учреждений, членов «махаллинских семерок», старейшин, было посвящено анализу причин преступлений и мерам по их предупреждению. Акцентировано внимание на резонансном преступлении, совершенном школьником 19 марта в Балыкчинском районе.

В ходе заседания детально рассмотрены факторы, способствовавшие совершению противоправного деяния. Отмечено, что к ответственным лицам, не выполняющим свои обязанности на должном уровне, будут применены меры правового воздействия в установленном порядке.



Кроме того, на встрече подробно обсуждалась проблема кибермошенничества. Участники отметили, что жертвами интернет-преступников часто становятся доверчивые граждане, и выразили обеспокоенность ростом подобных случаев.



■ Сурхандарьинская область

Продолжается изучение хода эффективности системы раннего предупреждения правонарушений. На этот раз рабочая группа посетила Сариасийский район.



Особое внимание уделено махалле Биллур, где сложилась сложная криминогенная обстановка. Члены рабочей группы изучили деятельность «махаллинской семерки», оценили меры, принимаемые в рамках исполнения постановления, дали ответственным лицам конкретные поручения по повышению эффективности работы.

На заседании с участием районного координационного штаба и представителей прокуратуры обсужден ход реализации поставленных задач. Подчеркнуто, что необходимо строго следить за качественным выполнением мероприятий, предусмотренных «Дорожной картой», наладить систематический мониторинг.

AYOL VA JAMIYAT

AZM-U SHIJOAT BILAN

Jamiyatda xotin-qizlarning roli tobora mustahkamlanib bormoqda. Lekin hali-hanuz hoy-u havaslari girdobida o‘zlarini ham, atrofidagilarni ham muammoga qo‘yayotganlar topiladi. Yoki oilada faqat o‘zini haq deb bilib, nizolarga sabab bo‘layotganlar ham ko‘p.



Chust tumanida ayni paytda xotin-qizlar soni 140 ming nafarga yaqinlashib qoldi. Tuman hokimligi, FHDY bo‘limi, otinoyilar, imomlar, mahalla xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda yil boshidan buyon 61 ta nizolashayotgan oilani murosaga keltirdik, 88 nafar tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayolga himoya orderi berdik. 63 nafar probatsiya hisobida turgan xotin-qizning jamiyatda o‘z o‘rnini topish mavqeyini tiklashi uchun yuridik va psixologik maslahat berib, ularni ishga joylashtirishda, fuqarolik pasportlari olishda, oilalarini tiklash va boshqa masalalarda yordam ko‘rsatildi.

Tazyiqqa uchraganlarning aksariyati o‘zlari murojaat qilishgan yoki profilaktika inspektorlari tomonidan ham aniqlanganlari bor. Ba’zi holatlarda oilada tazyiqqa uchragan ayolni eri uyiga kiritmay chiqarib yuborgan, u esa ota-onasinikiga borishni xohlamaydi. Ana shunday holatlarda nizo bartaraf etilgunga qadar viloyat reabilitatsiya markaziga yuboriladi. Ushbu markazda ayolga huquqiy-psixologik yordam ko‘rsatiladi.

Masalan, M.N. qaynonasi tomonidan ko‘p zulm ko‘rgan, uni muntazam ravishda haqoratlab kelgan. Ayolning eri ham unga yaxshi munosabatda bo‘lmagan. M.N.ni vaqtincha reabilitatsiya markaziga yubordik. Oilasidagilar bilan gaplashib, qilmishlari oqibatlarini tushuntirganimizdan so‘ng ayol oilasi bag‘riga qaytdi. Bunday paytlarda yarashtiruv komissiyasi a’zolarining birgalikdagi harakati natija berayotganini e’tirof etish joiz.

Probatsiya hisobida turgan xotin-qizlar monomarkazlarda o‘qitilib, imtiyozli kreditlar olishga ko‘maklashilyapti. Issiqxona, chorvachilik, asalarichilik, tikuvchilik yo‘nalishlarida 7 nafar ayol o‘z faoliyatini boshlashdi. Masalan, N.S.ni tadbirkor bilan shartnoma qilib, tikuvchilik kasbiga o‘qitishga yo‘naltirildi. Bitirgach, Chustdagi to‘qimachilik korxonasiga ishga joylanadigan bo‘ldi.

Faoliyatim davomida ko‘plab oilalarni yarashtirishga erishib, opa-singillarimizga yordam berayotganimdan mamnunman. Bunday xayrli ishlar doimo kuch-quvvat, shijoat bag‘ishlaydi.

Cho‘lponoy ABDURAHMONOVA,
podpolkovnik.

Namangan viloyati.

PATRUL SHAHAR KEZADI

KO‘CHA TASODIFLARGA TO‘LA

Patrul-post xizmati bo‘linmasi xodimi uchun har bir kun kutilmagan voqealarga boy bo‘ladi. Kimdir yordam so‘raydi, kimdir to‘g‘ri yo‘ldan adashadi, yana kimdir esa qonunga qarshi boradi...



Bu kecha tungi xizmatga jalb qilingan katta leytenant Otabek Naimov xizmat mashinasida shahar ko‘chalari bo‘ylab harakatlanarkan, tevarak-atrofni e‘tibor berib kuzatardi. U Islom Karimov ko‘chasida bir guruh yoshlar baland ovozda bahslashayotganini ko‘rib qoldi. Hamkasbi safdor Rustam Elmurodov bilan ularning oldiga yugurib borgunicha, ikki yigit mushtlasha ketdi. Otabek tezda ularni ajratib, mojaro sababini so‘radi. So‘ng jahlga erk berish yaxshilikka olib kelmasligini tushuntirdi. Bemahalda maqsadsiz ko‘chada yurmaslik lozimligini ta’kidladi. Yoshlar birin-ketin tarqalishdi. Lavhamiz qahramoni esa diqqat bilan ko‘chalarni kuzatishda davom etdi.

Shu payt navbatchilik qismidan tezkor ma’lumot oldi. «Janubiy» ko‘chasi 5-ko‘p qavatli uyning oldida mast erkak baqir-chaqir qilib qo‘shnilarning tinchini buzayotgan ekan. U katta leytenant Otabek Naimov va safdor Rustam Elmurodovni ko‘rsa ham tinchlanmadi. Aksincha, xodimlarning qonuniy talabini bajarishdan bosh tortib, odamlarning oromini buzishda davom etdi. Oxiri uni hushyorxonaga olib borishga to‘g‘ri keldi.

Tun yarmiga borib, ko‘chalarda odamlar siyraklashdi. Mashinalar qatnovi ham keskin kamaydi. Otabek Naimov Navoiy shahrining markazini aylanib yurar ekan, kam yoritilgan ko‘chalarda qarovsiz qoldirilgan velosipedlar va bolalar aravachalariga birov ko‘z olaytirmasin deya bir-bir nazar tashlardi. Shu zaylda tong ota boshladi. Xodim yana bir kecha osoyishta o‘tganiga xursand bo‘ldi.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga 5 yildan oshdi. Ayni paytda Navoiy viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni tumanlararo patrul-post xizmati otryadi komandiri lavozimida faoliyat olib boryapti.

– Har safar biror qiyinchilikka duch kelsam, sohaga kirayotib qilgan qasamyodimni eslayman, ota-onam, ustozlarim va hamkasblarim ko‘z oldimga kelishadi. Xizmat jarayonida jinoyat sodir etishga moyil kimsani niyatidan qaytarsam, ko‘ngilsizlikning oldini olsam, el-yurtimizning osoyishtaligini ta’minlashga hissa qo‘shayotganimdan mamnunlik hissini tuyaman, – deydi u.

Katta leytenant Otabek Naimov qo‘l ostidagi xodimlari bilan «Tig‘», «Ogohlik», «Tun», «Oriyat» kabi profilaktik va nazorat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Xizmatda turfa fe’l-atvorli odamlar bilan muloqotda bo‘ladi. Kimdir yaxshi gapni tushunadi. Kimgadir esa talabchanlik qilishga, ba’zan ma’muriy chora ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Otryad sardori doimo vaziyatga qarab, eng maqbul yo‘lni tanlaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

IIV TA’LIM MUASSASALARIDA

YAXSHI SHOGIRD USTOZNING YUZI

Yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, aqlan va jismonan barkamol yoshlarni tarbiyalash IIV akademik litseylarining asosiy vazifasi hisoblanadi. IIV Buxoro akademik litseyida ham bu borada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mazkur ta’lim muassasasida 373 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. O‘quv maskanida umumta’lim fanlaridan mahoratli pedagoglar, maxsus fanlardan esa ichki ishlar organlarida uzoq yillar xizmat qilib, boy tajribaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar dars mashg‘ulotlarini olib borishmoqda. Shahar va viloyat miqyosida o‘tkazilayotgan turli ko‘rik-tanlovlar, fan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz faxrlansa arzigulik yutuqlarga sazovor bo‘lishyapti. Saida Annayeva, Sayyora Hojiyeva, Shohmardon Salohiddinov, Mirzohid Jalolovlar bu kabi tanlovlarning faol ishtirokchilari hisoblanadi. Fevral oyida O‘tkir Hoshimov romanlari yuzasidan o‘tkazilgan kitobxonlik tanlovida Tavakkal Qodirov, Asilbek Salohiddinov, Madina Izatulloyeva, bosqichlarida yuqori natijalarni egalladi. Radmir Zaripov yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi hisoblanadi. U respublika chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Osiyo o‘yinlariga tayyorlanmoqda.

Joriy yilning 27-fevral – 1-mart kunlari Toshkent shahridagi «Jar» sport-sog‘lomlashtirish kompleksida IIV akademik litseylari hamda Nukus Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litsey o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan «Jangovar tayyorgarlik bo‘yicha ko‘rgazmali chiqishlar» ko‘rik-tanlovida ham akademik litseyimiz jamoasi faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari – K. Latipov va F. Islomovalar tomonidan tayyorlangan Jahongir Sayfiyev, Seyxan Jo‘rayev, Arzuman Safarov



Dilfuza Karimovalar g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Nargiza Nekova hamda Madina Izatulloyeva o‘zbek tili fanidan respublika fan olimpiadasining viloyat bosqichida sovrinli o‘rinlarni egallashdi.

Akademik litseyda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarimiz viloyat, respublika, jahon miqiyosida o‘tkazib kelinayotgan turli sport musobaqalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 70 nafarga yaqin o‘quvchi professional tarzda sport bilan shug‘ullanib kelmoqda. Ulardan 6 nafari sport ustasi, 8 nafari sport ustaligiga nomzod, qolgan sportchilar 1 va 2-razryad sohiblaridir. Xususan, Janona Salimova sportning volleybol va yengil atletika turi bo‘yicha viloyat va respublika va Amirbek Bahronov singari faol o‘quvchilarimizning jangda himoya va hujum usullarini qo‘llash mashqlarini mahorat bilan bajarishi hakamlar tomonidan yaxshi baholandi.

Bunday yutuqlar o‘zidan o‘zi bo‘lmaydi, albatta. Jamoada sog‘lom muhit shakllansa, hamjihatlik, ahillik bilan ish ko‘rilsa, u yerda hamisha zafar qozoniladi. Bir so‘z bilan aytganda, yuqoridagi singari natijalarning qo‘lga kiritilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ra’no Xodjayeva, Baxtiyor Hamidov, Dilfuza Zaripova, Sanjar Barnoyev kabi boy tajribaga ega, fidoyi ustozlarning hissasi katta bo‘lmoqda.

Dilorom TOSHEVA,
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Buxoro viloyati.

BIR TUMAN TARIXI

Kitob tumani yurtimizdagi iqlimi mo‘tadil hududlardan biri. Boisi, tumanni uch tomondan Ziyovuddin va Qo‘rg‘ontog‘ (Zarafshon tog‘ tizmasining davomi) hamda Taxtaqoracha (Hisor tog‘ tizmasining davomi) tog‘lari o‘rab turadi. Balandligi 4000 metr bo‘lgan Katta O‘zbekiston trakti, balandligi 1788 metr bo‘lgan Taxtaqoracha dovoni respublika janubini shimoliy viloyatlar bilan bog‘laydi.

KITOBMI YO KIFTIOB?



Hudud aholisi 287 ming nafardan ortiq. 59 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Tuman xo‘jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil qiladi. Shu bilan birga, o‘nga yaqin millat vakillari yashaydigan tumanda hunarmandchilik rivojlangan.

Kitob so‘zi asli tojik tilidan olingan bo‘lib, «Kift» – yelka, «ob» – suv, ya’ni ikki yelkadan o‘tgan suv degan ma’noni anglatadi. Bu bejiz emas. Negaki, tumanning ikki tomonidan ikki daryo – Qashqadaryo va Oqdaryo oqib o‘tadi.

Tuman markazi – Kitob shahri yozma manbalarda XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab uchraydi. Aytilishicha, shahar baland va mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Uning «Jangallik», «Xo‘jaro‘shnoyi», «Govxona», «Ravatoq», «Qorapoycha», «Lo‘lixona» va «Kunchiqar» deb yuritiladigan 7 ta darvozasi bo‘lgan.

Kitob bekligi Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. Tuman Buyuk Ipak yo‘lida joylashgani sababli har yili yuzlab savdo karvonlari o‘tib turgan. Aholining ko‘pchiligi hunarmandchilik va savdo bilan mashg‘ul bo‘lgan. Tarixiy manbalarda XVIII asrning oxiri XIX asrning ikkinchi yarmida Kitob shahrida to‘quvchilik, bo‘yoqchilik, gilamdo‘zlik, kashtado‘zlik, do‘ppido‘zlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, ko‘nchilik, mahsido‘zlik, kovushdo‘zlik, kulolchilik, duradgorlik, tegirmonchilik, juvozkashlik kabi hunar turlari yaxshi rivojlangani qayd etiladi.

Yer yuzida beshta xalqaro qutb o‘rnini monitoring qilishga mo‘ljallangan joy bor. Bular AQSHdagi Getesberg va Yukaya, Yaponiyadagi Mitsuzava, Italiyadagi Karloforte hamda O‘zbekistondagi Kitob kenglik stansiyasidir. 39 gradus 08 daqiqa shimoliy kenglikda joylashgan mazkur obyekt 1929-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u geografik kengliklarning o‘zgarishini tekshirishga ixtisoslashgan.

1957-yili kenglik stansiyasiga «ZTL-180» zenit teleskopi o‘rnatilgan. U bilan hatto yil o‘lchovini amalga oshirish mumkin. Ya’ni, bir yulduzni shu bugun kuzatuvdan o‘tkazib, aynan kelasi yil yana uni qayta ko‘rish uchun oradan o‘tgan vaqt yil hisobiga to‘g‘ri keladi. Umuman, majmua tashkil etilgandan buyon 5 mingdan ortiq yulduzlar va boshqa osmon jismlarini o‘rganishga erishilgan.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



■ Ферганская область

ЦЕНТР В ОБНОВЛЕННОМ ЗДАНИИ



В дни празднования Навруза в Фергане состоялось торжественное открытие обновленного здания Центра административной практики УБДД УВД области. Центр создан с учетом современных требований: здесь оборудованы комфортные рабочие места для сотрудников, созданы необходимые условия для посетителей. Здание оснащено новейшей техникой, что значительно повысит эффективность работы.

В последние годы в системе обеспечения дорожной безопасности реализованы масштабные реформы. Деятельность сотрудников организуется на основе инновационных подходов. Внедряются цифровые технологии, применяются передовые зарубежные практики.

Практические результаты реформ уже оценили жители области. Теперь посетителям не придется тратить время в длинных очередях, как это было раньше. Введение новых штатных единиц позволило повысить качество предоставляемых услуг и сократить время рассмотрения обращений. В Центре оборудованы зоны для подачи документов и осуществления платежей, что делает процесс максимально удобным.

– Эффективность работы Центра возрастет в разы, – отметил подполковник в отставке Иброхимжон Халиков. – Это еще один шаг к укреплению доверия населения к Службе безопасности дорожного движения.


Открытие Центра стало важным событием, символизирующим не только модернизацию сферы, но и стремление к созданию удобной и прозрачной системы обслуживания граждан.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.

Женщины в погонах

РАБОТА, ТРЕБУЮЩАЯ ПУНКТУАЛЬНОСТИ

Начальник канцелярии Управления обеспечения безопасности на транспорте Наманганской области рядовая Татьяна Буваева обрела заслуженное уважение коллег.




Квалифицированный специалист, она отличается трудолюбием, ответственным подходом к порученному делу. В 2006 году окончила Наманганский колледж легкой промышленности и поступила на службу в УВД области. Начав с должности секретаря хозяйственного отдела, на протяжении карьеры занимала ряд ответственных постов.

В 2016 году Т. Буваеву назначили начальником канцелярии Управления обеспечения безопасности на транспорте, где она и поныне добросовестно выполняет возложенные на нее обязанности. Помимо основной работы, она активно помогает молодым коллегам, только начинающим службу в органах внутренних дел.

– Горжусь своей работой и тем, что могу внести вклад в обеспечение безопасности на транспорте. Каждый день приносит новые задачи, которые требуют внимания к деталям, организованности. Видеть результаты своего труда и знать, что твоя работа действительно важна – это большая мотивация, – делится Татьяна Буваева.

Соб. корр.
Наманганская область.





«NURLI MASKAN»

YURAGIDA GAVHARI BORLAR

Keng va yorug‘ xona. Yigirma chog‘li o‘quvchi nimanidir yozish bilan mashg‘ul. Ochiq derazadan kirgan mayin shamol pardalarni silkitadi. Sinfda suv quygandek jimlik. Bu manzara qadrdon maktabingizni yodga solgan bo‘lsa, ajab emas. Ha, biz necha yoshda bo‘lmaylik, bu maskan qalbimizga beg‘ubor bolalik xotiralarini solaveradi, ko‘cha-ko‘yda o‘qituvchimizni ko‘rib qolsak, beixtiyor yuzimizga tabassum, dilimizga nur inaveradi.



O‘qituvchilikdek mashaqqatli kasbda uzoq yillardan beri xizmat qilib kelayotgan, ko‘plab shogirdlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llab, elning olqishini olayotgan ustozlardan biri Toshkent shahridagi 77-ixtisoslashtirilgan «Nurli maskan» maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, «Do‘stlik» ordeni sohibasi Marg‘uba G‘ulomovadir.

– Maktab-internat hayotimning bir bo‘lagi, umrim mazmunidir, – deydi Marg‘uba opa. – Bolaligimdan o‘zim shu maskanda tahsil olganman. Qalbi daryo ustozlarim sabab o‘qituvchilik kasbiga mehr qo‘yganman. Toshkent davlat pedagogika universitetiga o‘qishga kirganimda, bu kasbning mas’uliyatli vazifa ekanligini angladim. Institutni tamomlab, maktabimizga qaytdim va faoliyatimni shu yerda boshlab, mana, bugungi kunga qadar ishlab kelmoqdaman.

Bir qaraganda, o‘qituvchilik kasbida ortiqcha murakkablik yo‘q-dek. Tayyor darsliklar, aniq dasturlar, qat’iy belgilangan vaqt... Ammo hamma gap ana shu birxillikdan rang-baranglik yarata olishda. Marg‘uba G‘ulomova ta’lim sohasida yillar davomida to‘plangan tajribalardan ham kerakli jihatlarini oladi. Bugungi noan’anaviy dars usullaridan keng foydalanadi. Maqsad – o‘quvchi uchun saboqning har daqiqasi qiziqarli bo‘lsin, har dars tafakkuriga yorug‘ yozuvlarni yozsin. Toza tuproqqa qadalgan urug‘ bir kun kelib ko‘zni quvontiradigan hosil berganiday, muallimaning ta’lim bergan shogirdlari ham bugun turli kasb egalari bo‘lib, el yukiga yelka tutishmoqda.

Marg‘uba G‘ulomova o‘z ustida izlanishdan, bilimlarini yanada boyitishdan sira charchamaydi. Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan «Bir safda» jurnalida turli mavzularda dolzarb maqolalarini nashr etib turadi.

– Xursand bo‘ladiganim, bitiruvchi o‘quvchilarimning to‘qson foizi sog‘lomlar qatori, universitetlar va institutlarga kirib bemalol o‘qiy olishadi. Bugungi kunda ular orasida doktoranturada o‘qiyotgan, Jahon tillari universitetida dars berayotganlari ham bor. Ayting, bu baxtdan sevinmay bo‘ladimi, axir?! – deydi qahramonimiz g‘ururlanib.

Adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov «Mangu latofat» kitobida «Odamlarning yuragida gavhar bo‘ladi», deb yozadi. Marg‘uba G‘ulomova singari kuyunchak ustozlar o‘z o‘quvchilari qalbidagi gavharlarni yog‘dulantiruvchi billur chiroqlardir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

YANGI O‘ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

Namangan viloyati

Viloyat IIBda Tezkor boshqaruv markazining yangi binosi foydalanishga topshirilishiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Unda viloyat hokimi Shavkatjon Abdurazzoqov hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar boshliqlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.



Markaz so‘nggi zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan. Unga «Xavfsiz shahar» tizimi integratsiya qilinib, 700 tadan ortiq kuzatuv kameralari ulangan. Bu, o‘z navbatida, hududlarda jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning tezkor oldini olish bo‘yicha samarali nazorat o‘rnatilishini ta’minlaydi.



IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining 2-mintaqaviy muvofiqlashtirish markaziga qarashli Uychi tumanidagi 6-sonli tergov hibsxonasida mahkumlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish maqsadida issiqxonachilik, parrandachilik va quyonchilik yo‘nalishlarida ta’lim berish tizimi tashkil etilgan. Hibsxona xodimlari mahkumlarga nazariy va amaliy bilimlar berib, ularning kelgusi hayotida mustahkam kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga hissa qo‘shishmoqda. Albatta, mazkur tashabbuslar mahkumlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish, ularning yangidan hayot boshlashini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Shuningdek, hibsxona tarbiyaviy ishlar guruhi xodimlari tomonidan kitobxonlik tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda. Xo‘jalik xizmatida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarning bo‘sh vaqtlarini unumli band qilish maqsadida kitob mutolaasi soatlarida qiziqarli suhbatlar tashkil etilmoqda.

O‘z muxbirimiz.







MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT DARSI

«BIZ KIM, MULKI TURON, AMIRI TURKISTONMIZ!»

(9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun)

Dunyoda millatni millat, elatni elat sifatida tanitgan tarixiy shaxslar sanoqlidir. Ana shunday buyuk insonlardan biri ulug’ bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur bo‘lib, uning ona Vatanimiz oldidagi beqiyos xizmatlari tahsinga loyiq.

Amir Temur davlatida ichki va tashqi siyosat

Sohibqiron mohir sarkarda, diplomat va yetuk davlat arbobi bo‘lganligi bois, milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. U turk-mo‘g‘ul an’analariga amal qilgan holda, o‘z davlati hududini suyurg‘ol (ulus) tariqasida in’om qilish yo‘li bilan boshqardi. Ulug‘ hukmdor Movarounnahrdan tashqaridagi yerlarini to‘rt ulusga bo‘lib, farzandlariga in’om qiladi. Bu masalaning e’tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan in’om qilingan yerlar ichki mustaqillikka ega bo‘lsa-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo‘ysunardi.

Amir Temur davlatining eng ibratli tomoni shunda ediki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo‘lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini to‘g‘ri idrok etdi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda davlatning markaziy ma’muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to‘rtta vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig‘ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash, saroy xarajatlari bilan bog‘liq ishlarni bajarishgan.

Bu davrda yerga egalikning ba’zi turlari mavjud bo‘lib, ular suyurg‘ol, vaqf va jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olgan, vaqf yerlari masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo‘lib, soliq to‘lashdan ozod qilingan. Asosiy daromad solig‘i – xiroj bo‘lib, u olinadigan foydaning uchdan bir qismiga teng bo‘lgan. «Temur tuzuklari»da yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, yerni o‘zlashtirganligining uchinchi yili qonun doirasida xiroj solig‘i to‘lagan. Bundan tashqari, ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari ham mavjud bo‘lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga muvofiq ravishda yig‘ilgan.

Mohir sarkarda chet el davlatlari bilan savdo aloqalarini keng yo‘lga qo‘ydi. Ushbu davrning shart-sharoitlariga ko‘ra, tashqi siyosatda qat’iy, faol harakat qilib, o‘z salohati dovrug‘ini dunyoga mashhur qildi. Sohibqiron Yildirim Boyazid ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yib, savdogarlarni va mol almashishni taklif qildi. Shunday qilib, u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini o‘rnatish hamda savdo va karvon yo‘llarini rivojlantirish niyati borligini ko‘rsatib, o‘z davlati shuhratini Yevropaga ham tarqata olgan.

Kuch – adolatdadir

Amir Temur davlatida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror rivojlangan. Sohibqiron fan va madaniyat jonkuyari sifatida shuhrat qozongan. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamolar bilan suhbatda bo‘lib, qalbi toza kishilarga talpindi. Bu davrda ilm-fan, me’morchilik, san’at sohalari o‘ta rivojlanib, yuksak ma’naviy boylik darajasiga ko‘tarilgan edi. Uning «Kuch – adolatdadir» degan so‘zlari davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan darak berardi.

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e’tibor bergan. Uning harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokor va me’morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar barpo etildi. Hatto g‘ariblarga oziq-ovqat beradigan, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan maxsus joylar ham qurildi. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar barpo qilingan. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma’muriy bino Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar ham aynan shu yerda bunyod etilgan. Sohibqiron Samarqand atrofida go‘zal bog‘lar ham yaratadi. Ona yurti Keshga katta e’tibor bilan qaraydi, Shahrisabzda Oqsaroy me’moriy obidasi, jome’ masjid va madrasalar barpo ettiradi.

Sohibqirondagi ulug‘ saxovatning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrining obodonchiligiga katta ahamiyat beradi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi munosabatni ham yaxshi yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratadi.

Amir Temur davrida yangi shaharlar bunyod etilganini, savdo va hunarmandchilik ham keng rivojlanganligini aytib o‘tish lozim. Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib boradi. Ayniqsa, bu davrda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, savdo yo‘llarining tinchligini ham shaxsan uning o‘zi nazorat qilib, karvonlarning xavfsizligini ta’minlagani ayni haqiqatdir.



«Temur tuzuklari»ning ahamiyati

«Temur tuzuklari» alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatlarni boshqarishi haqidagi qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan. Undan ko‘plab sharq hukmdorlari faoliyatlari davomida foydalanib, yuqori baho berishgan.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi hamda markazlashgan davlat tuzishi bayon qilingan. Bundan tashqari, qo‘shni mamlakatlar Eron va Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon ustidan g‘alaba qozonishi, Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari yoritib o‘tilgan.

Asarning ikkinchi qismi esa sohibqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari hamda vazir va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Amir Temur ulug‘ saltanat barpo etgan, davlatning ichki siyosati – harbiy san’atni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib borgan. Mo‘g‘ul istilosi asoratlarini bartaraf etishga erishgan. Xo‘jalikni oyoqqa turg‘azishga muvaffaq bo‘lgan. Shuningdek, savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirgan. Aholi manfaatlarini himoya qilgan, ilm-fan, madaniyat, me’morchilikni tubdan taraqqiy ettirgan. Obodonlashtirish ishlarini keng ko‘lamda olib borgan.

Istiqlol haqiqati

Sobiq ittifoq mafkurasi sohibqiron faoliyatiga salbiy munosabatda bo‘lib, o‘sha davr adabiyotlarida qoralab kelindi. Lekin taqiqlarga qaramasdan, ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida to‘g‘ri fikrlar ham bildirildi. Bu jihatdan 1968-yili akademik Ibrohim Mo‘minovning «Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli» risolasining nashr etilishi muhim voqea bo‘ldi. Mazkur risola sohibqiron shaxsiga bir yoqlama qarashlarga chek qo‘yish maqsadida yozilgan ilmiy asar edi. Ammo bu asar qattiq tanqidga uchradi.

O‘zbekistonning istiqlolni qo‘lga kiritishi tariximizga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish imkonini yaratdi. Shu bois so‘nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o‘rganishga bag‘ishlangan qator manbalar va kitoblar nashr qilindi. Ayniqsa, Bo‘riboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi yuqoridagi fikrimizning tasdig‘idir. 1996-yil yurtimizda «Amir Temur yili» deb e’lon qilinishi va bu sananing dunyo miqyosida keng nishonlanishi sohibqiron nomi oqlanib, uning buyuk xizmatlari e’tirof etilganligining yorqin dalilidir. Ulug‘ vatandoshimizga atab O‘zbekistonning 3 ta shahrida sohibqironning haykali o‘rnatildi. Hatto Yevropaning ko‘plab davlatlari qatori, Fransiyada ham Amir Temurni o‘z xaloskori sifatida qadrlab, unga oltin suvi yuritilgan haykalcha o‘rnatilgani uning shaxsiga bildirilgan hurmat-e’tiborning namunasidir.

Mixli SAFAROV,
o‘z muxbirimiz.

RAQAMLASHTIRISH SAMARASI

TUN-U KUN BEDOR «KUZATUVCHI»LAR

Shirin – Tojikiston bilan chegaradosh ko‘p millatli shahar. Yigirma mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan shaharda 3 ta yirik elektr energiya stansiyasi faoliyat ko‘rsatadi. To‘rtinchisi jadallik bilan bunyod qilinmoqda. Shu munosabat bilan xitoy, hind, koreys va arab millatiga mansub quruvchilar bu yerdan vaqtinchalik qo‘nim topgan. Shaharning to‘liq videokuzatuv vositalari bilan qamrab olingani bo‘lsa kerak, shaharda ikki yildirki, vaziyat barqaror.

2019-yilda boshlangan raqamlashtirishga qariyb bir necha milliard so‘m miqdorida mablag‘ sarflandi. Avvaliga ichki ko‘chalar, mahallalar to‘liq kameralashtirildi. Mirzo Ulug‘bek nomli mahallaga yigirmadan ortiq videokuzatuv kameralari o‘rnatildi. «Do‘stlik» va Amir Temur nomli mahallalardagi ko‘p qavatli uylarning barchasi texnik kuzatuvga olindi. Bundan norozi bo‘lganlar ham topildi. Lekin o‘g‘rilik, bezorilik kabi bir necha huquqbuzarliklar tezda fosh etilgach, bu naqadar foydali ekanini ko‘pchilik tushundi.

Keyingi bosqichda «Farhod», «Nurobod» kabi aholi tig‘iz yashaydigan mahallalarda videokuzatuv vositalarini o‘rnatish loyihasi amalga oshirildi. Birgina «Nurobod» mahallasiga avtonom faoliyat yuritadigan yigirmadan ortiq videokameralar o‘rnatildi.

– Mahallada mavjud videokuzatuv tizimi alohida lokal tarmoqqa ega bo‘lib, internet bo‘lmaganda ham faoliyat ko‘rsatadi, – deydi shahar IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, mayor Ixtiyor Xatamov. – Shuningdek, HD formatda tungi ko‘rish tizimiga ega. Ular kelgusida yuzdan tanish texnologiyasini ham qo‘llay oladi.

Shirin shahrining Toshkent viloyati, Boyovut va Xovos tumanlariga tutash yo‘llari ham kameralashtirilgan. Natijada avtomobillar oqimi to‘liq nazoratga olindi. E’tiborlisi, mahalla ko‘chalariga va yo‘llarga o‘rnatilgan nazorat-kuzatuv vositalari nafaqat mahalla profilaktika inspektori, balki shahar IIBdagi situatsion markazga ham ulangan. Masalan, Xovos tumanida yashovchi 2 nafar shaxs Shirin shahrida giyohvandlik vositalarini sotish bilan shug‘ullanayotgani to‘g‘risida tezkor xabar olinadi. Bu borada videokameralar yordamida bir qancha vaqt o‘rganishlar olib boriladi. Kuzatishlardan so‘ng qing‘ir niyatli shaxslar ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olinadi. Ularning xatti-harakati videoyozuvlar orqali isbotlanadi.



Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

IJTIMOIY HIMOYA

VATAN ICHRA VATAN



Yaqinda poytaxtimizning Yangihayot tumanida IIV Qorovul qo‘shinlarining 73 nafar harbiy xizmatchilari uchun uzoq muddatli imtiyozli kredit asosida qurib bitkazilgan yangi ko‘p qavatli uylarni tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirga kelgan mehmonlar ham yangi uylardagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, xonadon sohiblari bilan dildan suhbat qurishdi.

– Tizimdagi 23 yillik xizmat faoliyatim va uy-joyga bo‘lgan ehtiyojimga bo‘lgan e’tibor tufayli barcha imkoniyatlarga ega 2-xonali xonadon sohibiga aylandim, – deydi 7534-harbiy qism IIV Markaziy bazani qo‘riqlash batalyoni komandiri o‘rinbosari, podpolkovnik Muzaffar Hayitov. – Ko‘p yillar ijarada yashab yurdik. Hukumatimiz va vazirlik rahbariyatidan behad minnatdorman. Endi oilam bilan o‘z uyimda bamaylixotir, hadiksiz yashayman. Farzandlarimning quvonchi cheksiz.

Vadim TO‘XTAYEV,
oddiy askar.



JINOYAT VA JAZO

DALLOLNING BOZORI CHOPMADI

Inson hayotda o‘ziga yarasha orzu-havas bilan yashaydi. Orzular ro‘yobi uchun yelib-yuguradi, mehnat qiladi. Ammo, oramizda shunday kimsalar ham borki, ular halol mehnat qilish o‘rniga odamlarning soddaligidan foydalanib, o‘zgalarning mol-mulkiga ega chiqishni afzal bilishadi.

To‘rtko‘l tumanida yashovchi Ortiq Sulaymanov (ism-sharifi o‘zgartirildi) avtomashina oldi–sotdisi bilan shug‘ullanib, dallollik qilib kelardi. Topgan pullarini esa maishatga sarflardi. Shuning uchunmi, topish-tutishida unchalik baraka bo‘lmadi.

Kunlardan birida shu tumanda yashovchi M.Qodirov «Cobalt» avtomashinasini sotish niyatida ekanligini eshitib uning yashash manziliga keladi. Avtomashinani obdon ko‘zdan kechirganidan so‘ng savdolashishga tushadi. Xullas, savdo 180 mln so‘mga to‘xtab, shu paytning o‘zida 10 mln so‘m garov puli berishini, qolganini ma’lum muddat ichida yetkazishini aytadi.

Haqiqatan ham, aytilgan muddatda Ortiq M. Qodirovning uyiga pul ko‘tarib keladi. Lekin uning miqdori kelishilgan summadan 60 mln so‘m kam edi. Bu holatni u hozir ishlari yurishmay qolgani bilan bog‘lab, yaqin kunlar ichida qarzdan to‘liq qutulib ketishini aytib, va’dani quyuq qiladi. Ammo oradan qancha vaqt o‘tmasin, na undan, na puldan darak bo‘ladi...

Bu paytda u ikkinchi bir fuqaroning pullarini qo‘lga kiritish ilinjida yurgandi. Fuqaro G. Kulebayev 2 ta «Tracker-2» avtomashinasini sotish harakatida ekanligidan xabar topib, agar xohlasa ulovlarning har birini 270 mln so‘mdan sotib berishini aytadi. G.Kulebayev aynan ko‘nglidagi taklif bo‘lgani bois rozilik bildirib, avtomashinalarni berib yuboradi.

Oradan bir necha kun o‘tib O.Sulaymanov G.Kulebayevga faqat 200 mln so‘m pul olib kelib, qolganini yaqin vaqt ichida keltirishini, hattoki kechikkan vaqt uchun foiz to‘lashi haqida ishontirishga urinadi. Mashinalar egasi ustomon dallolning bu gaplariga ishonadi, biroq...

Oldingi holatdagidek, oradan qancha vaqt o‘tmasin, O.Sulaymanovdan darak bo‘lmaydi. Qilingan qo‘ng‘iroqlar javobsiz qoladi, keyinchalik uning telefon raqamiga umuman tushib bo‘lmaydi. Ilojsiz qolgan G.Kulebayev holat yuzasidan ichki ishlar organiga murojaat qilishga qaror qiladi. Tergovga qadar olib borilgan surishtiruv ishlari davomida «qahramon»imiz shu tarzda yana bir necha fuqarolarni aldab kelayotgani ma’lum bo‘ladi.

To‘plangan dalillarga ko‘ra, unga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, o‘tkazilgan sud majlisida keltirilgan zararlarni qoplash bilan birga qamoq jazosi tayinlanadi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

Урок духовности и просвещения

«МЫ – ВЛАДЫКА ТУРАНА, АМИР ТУРКЕСТАНА!»

(9 апреля – день рождения Амира Темура)

Эпоха Амира Темура – одна из самых ярких страниц летописи узбекской государственности. Мудрый правитель, выдающийся полководец, основатель империи, он оставил неизгладимый след в истории.

Амир Темур родился 9 апреля 1336 года в селении Хужа Илгор, недалеко от Кеша (современный Шахрисабз). Его отец, Мухаммад Тарагай, происходил из знатного рода барласов.

С ранних лет Темур проявлял интерес к военному делу, любил состязания и охоту. Он искусно владел копьем и луком. С десяти лет наставники готовили его к воинской службе.

В зрелом возрасте, видя постоянные междоусобицы, раздиравшие страну, Темур всерьез занялся политикой. Он участвовал в управлении государством, завоевывая авторитет среди улемов и военачальников. В 1370 году на курултае в Балхе его провозглашают правителем Мавераннахра. Поскольку Темур не был прямым наследником престола, он принимает титул амира.

Полный энергии и замыслов молодой правитель положил в основу своей политики глубоко нравственный принцип «Сила – в справедливости».

Темур глубоко осознавал масштабность задач, которые ставила перед ним судьба. Он понимал, что прежде всего необходимо поднять с колен народ Мавераннахра, возродить его дух, объединить разрозненные земли. Только так можно направить потенциал людей на созидательные дела.

Столицей своего государства Темур объявил Самарканд. Здесь он начал строительство оборонительных стен, цитадели и дворца.

Подчинив земли между Амударьей и Сырдарьей, а также Фергану и Шашский вилоят, Амир Темур продолжил свои победоносные походы. Он создал централизованное государство от Инда и Ганга до Сырдарьи и Зарафшана, от Тянь-Шаня до Босфора. За годы правления (1370–1405) установил торгово-дипломатические связи с ведущими европейскими государствами, такими как Франция, Англия и Кастилия. О том, что двор Темура вел дипломатическую переписку со странами Запада, собрано немало письменных сведений, хранящихся в архивах и библиотеках Венеции, Испании, Франции, Англии, Турции.

Величие Сахибкирана заключается в выполнении исторической миссии: объединение территорий в могущественное государство, разгром монгольского хана Тохтамыша (после чего Золотая Орда уже никогда не смогла восстановить былую мощь).



В государстве Амира Темура достигли расцвета все сферы духовной культуры. Развивались наука, литература, градостроительство, что стало основой для Восточного Ренессанса и способствовало обогащению мировой культуры. Как покровитель науки и культуры Темур почитал ученых, историков, литераторов, считал их достойными людьми. Об этом свидетельствует современник Сахибкирана Хафизи Абру, который отмечает, что правитель ценил всякое знание, приносящее пользу.

Во времена Амира Темура Мавераннахр стал центром Ближнего и Среднего Востока, а древние города, такие как Кеш, Бухара, Термез, Мерв, активно благоустраивались. Особое внимание уделялось возвышению Самарканда. Сюда привлекались видные архитекторы, зодчие, строители. Под непосредственным руководством Амира Темура в столице были воздвигнуты более 20 грандиозных сооружений. Историки того времени писали, что Сахибкиран лично просматривал проекты этих строительств, вносил коррективы и лишь после того, как замысел приобретал совершенную форму, давал разрешение на строительство. Любовь к столице Темур выразил в словах: «Над Самаркандом всегда будет голубое небо и золотые звезды».



Не меньше, чем вопросам благоустройства, Амир Темур уделял внимание улучшению жизни жителей. Исторические источники свидетельствуют, что



он несколько раз освобождал их от различных налогов. Твердо контролировал соблюдение справедливости, жестко карал тех, кто безосновательно поднимал цены на товары. Испанский посол Руи Гонсалес де Клавихо писал: «В Самарканде законы незыблемы, господин (Амир Темур) не позволяет, чтобы кто-либо применял насилие по отношению к другому человеку или обижал его».

В наследство потомкам Сахибкиран оставил не только огромную державу, но и руководство к действию – «Уложения Темура». Это сочинение историко-правового характера, состоящее из двух частей. В первой части излагается автобиография Амира Темура с семилетнего возраста. Вторая часть – «Тузукат» – содержит наставления по устройству государства и армии, изложение обязанностей правителей и должностных лиц.

В «Уложениях» сформулированы правила поведения подданных, основанные на понятиях верности и преданности. Зафиксирована структура судебной системы, закреплены обязанности и права воинов, граждан. Значимость данного труда в том, что в нем идет речь о нерушимости закона.

Великие дела Амира Темура служат духовным ориентиром для нас. Осмысление наследия Сахибкирана способствует развитию чувства гордости за родную историю, укрепляет национальное самосознание.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

БИР ШЕЪР ТАРИХИ

ҲАЙРАТДАН ЯРАЛГАН ҲАЙКАЛ

Ҳар бир ижод намунаси – у бадиий асар ёки мўйқалам меваси, кинокартина ёхуд қўшиқ, спектакль ё мусиқий асар бўлсин, бундан қатъи назар, ўз тарихига эгадир. Албатта, зукко ўқувчи ё томошабин асар мазмунидан келиб чиқиб, унинг яратилиш тарихини тасаввур қилиши мумкин. Бироқ унинг ҳақиқий тарихини англаб етгандан кейингина асар қийматига тўлиқ баҳо бера олади.



Масалан, Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла Ориповнинг «Аёл» шеърини олайлик. Унинг ёзилганига 60 йил тўлди. Шу давр мобайнида мазкур асарни миллионлаб шеърият ихлосмандлари ўқиган ва ёд олган. Ишончим комилки, бу шеърни сиз ҳам ўқиган-сиз, эҳтимол, ёд ҳам олгандирсиз. Лекин нега шоир лирик қаҳрамон «ўн тўққиз ёшида бева қолди» деб айтяпти. Аёл йигирма ёки йигирма беш, ҳатто ўттиз ёки ундан ҳам катта ёшда бўлиши мумкин эди-ку! Ёки шеърнинг «Қуриган кўксида ёлғиз беланчак» сатридаги «ёлғиз беланчак» тафсилотига эътибор қаратганмисиз?

Йигитлар мактубин битганда қондан,
Келинлар фироқдан чекканда ёҳу,
Унинг ҳам паноҳи қайтмади жангдан,
Ўн тўққиз ёшида бева қолди у.

Севгидан етиму умрдан ярим,
Қуриган кўксида ёлғиз беланчак.
Абадий фироқни, ҳайҳот дўстларим,
Абадий висол деб билди келинчак.



Абдулла Орипов айтганидек, «яқинроқ келинг», азиз ўқувчи. Ҳозир биргаликда шоир ижодида ҳам, 60-йиллар адабиётида ҳам воқелик бўлган «Аёл» шеърининг яратилиш тарихига назар соламиз. Шунда, шубҳа йўққи, сиз шоирнинг болалик ҳайратлари ва тахайюл меваси бўлган бу гўзал шеърнинг ҳақиқий қийматини ҳис қиласиз.

Маълумотларга қараганда, Абдулла Ориповнинг Шермуҳаммад исмли амакиси бўлган. У ҳам эл бошига иш тушганда, этик билан сув кечган минглаб ўзбек йигитлари қатори, инсоният бошига кулфатлар ёғдирган фашизм балосига қарши жангга отланади. Надоматлар бўлсинки, унга серқуёш юртини яна кўриш насиб этмайди. Қонли жангларнинг бирида қаҳрамонларча ҳалок бўлган йигитнинг ўн тўққиз ёшли турмуш ўртоғи Ойбуви бевалик мақомини олади. Ёлғиз қизалоғи Раҳимани бағрига босганча тунлари унсиз мунг чекади...

Орадан 5–6 йил ўтгач, уруш асоратлари бироз чекинади. Одамлар яна жўшқин ҳаёт бағрига қайтишади. Шундай кунларнинг бирида Ориф бобо келинини ёнига чақириб, Шермуҳаммад энди қайтиб келмаслигини, унинг ҳаёти эса ҳали олдинда эканлигини, яна турмуш қуриб, униб-ўсиши мумкинлигини айтиб, рози-ризолик билдиради. Бироқ Ойбуви турмуш ўртоғига ваъда берганини, унга бўлган садоқати зоҳир эканини, ўз паноҳи деб билган инсонни умрбод кутиб яшашини айтади.

Тақдирнинг шевасини кўрингки, вафодор келинчак ёш умри хазон бўлаётганини англаб етса-да, ўзи учун тирик деб билган инсонни умр бўйи кутиб шу хонадонда яшайди. Ўн тўққиз ёшли бева келинчакнинг сўнгсиз садоқатига гувоҳ бўлиб улғайган Абдулла Орипов эса йигирма йиллардан сўнг вафодор келинойиси тимсолида севгисига содиқ қолган барча аёлларга қасида сифатида «Аёл» шеърини ёзади.

Хуллас, юқоридаги маълумотлар билан бойиган фикратингизни ишга солиб, шеърни бошқатдан ўқисангиз, унинг биринчи бандидаги «ўн тўққиз ёш» тафсилоти ва иккинчи банддаги «ёлғиз беланчак» тафсилоти қандай маъно ташиганини билиб оласиз.

Темир ҚУРБОН,
филология фанлари номзоди.

А Ё Л

Йигитлар мактубин битганда қондан,
Келинлар фироқдан чекканда ёҳу,
Унинг ҳам паноҳи қайтмади жангдан,
Ўн тўққиз ёшида бева қолди у.

Севгидан етиму умрдан ярим,
Қуриган кўксида ёлғиз беланчак.
Абадий фироқни, ҳайҳот, дўстларим,
Абадий висол деб билди келинчак.

Қақраган лабларда оловли нафас,
Кечалар кечмишин айлади кўмир.
Паришон сочлари ёр кўкси эмас,
Муздайин болишда қолди бир умр.

Йиллар ҳам ўтдилар, ҳамон у ёлғиз,
Мунғайиб термулар ботгувчи кунга.
Эй номард табиат, борми сенда ҳис,
Қайтадан бахт берсанг бўлмасми унга?!

Наҳот ишқ қисмати бунча бераҳм,
Бунчалар буюксан вафо шеваси.
Сенгадир ҳурматим, сенга шарафим,
Қаҳрамон жангчининг содиқ беваси.

Сиз-чи эй, садоқат сатридан нолиб,
Надомат комида қолганлар, айтинг.
Ўзини минг битта бозордан олиб,
Минг битта бозорга солганлар, айтинг.

Шу чўлпон кўзларнинг буюк ҳурмати,
Шу ақиқ лабларнинг рост сўзи дея,
Сўйланг-чи, вафонинг надир қиммати,
Сиз ҳам кутганмисиз бирор сония?!

Баъзида тирноқлар безаги учун
Саҳардан шомгача қилурсиз тоқат.
Бироқ ёрингизни кутгали нечун
Топилмас тирноқча сабру қаноат.

Назокат пайтимас, яқинроқ келинг,
Буюк зот қошида айлангиз салом.
Шу содиқ бевага саждалар қилинг,
Шу содиқ бевага айланг эҳтиром.

Ҳатто зеб-зийнатни юлқиб зиёда,
Ҳайкал ҳам қўйингиз бамисли хаёл.
Шундайлар бўлмаса агар дунёда,
Бу қадар муҳтарам бўлмасди аёл.

1965 йил.

HIKMAT

Faqat foydasi tegadigan ilmni olish kerak, foydasiz fazilatdan qochmoq va faqat zarur narsaga quloq ochmoq lozim.

Abdurahmon JOMIY.



HIKMAT

МУЛОҲАЗА

ГАП-СЎЗЛАР ҲАҚИДА ГАП-СЎЗ



Кўпчилик гап-сўзни салбий маъно беради, деб тушунишади. Чунки қонунга хилоф бўлган ишлар, элда йўқ бўлган қилиқларнигина одамлар гап-сўз қилишади.

«Ҳей, бегуноҳ одамни мунча гап-сўз қиласан, сал тилингни тийсанг-чи», – дейди инсофли одамлар. «Болам, бу ишингни қўй. Одамни гап-сўзга қолдирма!», дейди баъзи ота-оналар. «Вой, сен бола, мени роса гап-сўзга қолдириб, шарманда қилдинг-а», деб нолийди айримлар.

Бундай айтишувлар, баҳс ва тортишувлар кўпчилигимизнинг қулоғимизга чалинаётгани сир эмас. Шунинг учун кечаги ва бугунги гап-сўзлар ҳақида фикр юритмоқчимиз.

– Болам, уйда гап-сўз бўлса, кўчада гап-сўз бўлмайсан, – дер эди раҳматли отам. – Бирон иш қилмоқчи бўлсанг, аввал уйдагилар билан кенгаш, маслаҳат қил. Одам ишининг битишини эмас, унинг натижасини кўпроқ ўйлаши керак. Охири нима билан тугайди. Яхши деб қилинаётган ишларнинг ҳаммасиям яхши бўлавермайди. Фаҳм-фаросатли одамларнинг ишигина охири яхшилик билан тугайди. Ўйи калта, иши чала одамларнинг кўпи бир иш қиламан, дейди-ю, лекин охирида мулзам бўлиб, уятга қолади.

Дарҳақиқат, бундан 30–40 йил олдинлари эл орасида гап-сўзга қолиш катта уят, шармандали иш саналарди. Аммо кейинги пайтда гап-сўзлар ўз кучини йўқотгандек, назаримда. Айниқса, ижтимоий тармоқларда «Одамларнинг гап-сўзларига парво қилманг. Билганингизни қилинг, ўз йўлингиздан қайтманг. Одамлар гапираверади, сиз билган ишингизни қилаверинг, ноғорангизни чалаверинг», деган даъватлар тез-тез учраяпти. Анча-мунча обуначиси бўлган блогерлар: «Сиз дўстларингизни ортда қолдириб кетинг, улар сизнинг чангингизда қолиб кетсин. Сиз ҳақингизда нима деса деяверишсин, сиз эса сираям парво қилманг, ҳатто пинагингизни ҳам бузманг, фақат олға», дейишаётганига гувоҳ бўламиз.

Майли, агар бошқаларни чангида қолдириб кетаётган шоввоз яхши ишлари билан визиллаб учиб олдинда кетаётган бўлса, омадини берсин. Аммо ножўя, охири, натижаси пухта ўйланмаган ишлари билан ўзича олдин-да бораётган бўлса-чи?

Мабодо бундайлар салгина элга танилиб қолган санъаткор ёки спорт соҳаси вакилларидан бўлса, урди худо, деяверинг. Чунки сир эмас, бундан 10 йиллар олдин яримяланғоч ҳолида қўшиқ куйлайдиган ашулачи, қўшиқчилар анча-мунча эди. Ва улар маданият соҳасининг илғор вакиллари саналарди. Ҳозир, уларнинг «жилови тортилди» ва саҳна маданияти анча-мунча эпақага келиб қолди.

Мана шундай хонанда ва қўшиқчилар халқ орасида гап-сўз бўлмади, дейсизми? Шарқона миллий урф-одатларимизга зид бўлган ҳаракатлари учун улар халқ орасида ўзларига нисбатан муҳаббат эмас, нафрат уйғотгани бор гап-ку.

Бугун эса бу борада телесериалчиларимиз байроқдор. Улоқни олиб, манзил сари ортига қарамай чопишмоқда. Аммо бу манзилнинг ёшларни беҳаёлик, уятсизлик ва безбетлик сари олиб борувчи ҳалокат манзили эканини англамаяпти шекилли, қанча одамлар инсофга чақиришгани билан, пинагиниям бузмай ишини қилишмоқда. Аммо кенг жамоатчиликнинг фикри, дунёқараши хусусий ва шахсий, холос.

Мана шундай шахсий ва хусусий фикри бор, дунёқараши кенг, миллий ғурури билан ориятни, уятни биладиган, «оммавий маданият»ни ажрата оладиган теран фикрли кишилар тарбиясизлик ва ахлоқсизликни тарғиб қилаётган бундай кино ва киночиларни гап-сўз қилишмоқда. Уларни тўғри йўлдан юришга чақирмоқда. Демак, гап-сўз одамни тартибга чорлайди. Қилаётган нотўғри ишидан қайтаради.

Биз бировнинг камчилик ва хатосини айтишни ғийбатга йўямиз. Аммо бу гап-сўзлар юзига айтилмоқда, кимгадир пичирлаб, пинҳона айтилмаяпти. Шунинг учун бундай гап-сўзлар ғийбатга кирмайди. Бир болага етти қўшни ота-она, деган гап ҳам аслида шу. Маҳалладош қўшнилар маҳалла боласининг ножўя хатти-ҳаракатини ота-онасига келиб айтади. Ота-она эса бундан хулоса чиқариб, боласини номаъқул ишидан қайтаради. Агар қайтармаса, кейин гап-сўз бўлишини билади.

Файласуф Конфуций таъбири билан айтганда, инсон инсонга устоз. Бири қилаётган яхши ишлари билан, бошқаси эса ёмон ишлари билан. Динимизда эса инсонлар бир-бирига кўзгу, дейилади. Кўзгуда эса ҳар кимнинг яхши-ёмон иши аниқ-тиниқ кўриниб туради.

Яқинда таниқли адабиётшунос олим, ёзувчи ва таржимон Иброҳим Ғофуров «Бугун жамиятимизда қилаётган эзгу ва хайрли ишлари, яхши амаллари билан ёшларга намуна бўладиган, келажак авлодни орқасидан эргаштира оладиган кишилар кўринмаяпти», деган ўринли фикрни айтди.

Дарҳақиқат, бундан ярим аср олдинги болалар, ёшлар адабиётчиларга, яъни ёзувчиларга, олимларга кўпроқ ҳавас қилишар ва уларга эргашарди. Ва бундай ўз ортидан эргаштира оладиган кишилар бор ҳам эди. Улар ортидан бориб муваффақиятга эришганлари ҳам кўп эди.

Аммо бугун-чи. Бугунги ёшлар кимга, кимларга эргашяпти? Гап-сўзларга парво қилмай, пинагингни бузмай, олдинга чоп деяётганларгами? Улар ёшларни қаёққа югур, дейишмоқда. Манзил аниқми? Сиз бунга нима дейсиз?

Шуҳрат РЎЗИЕВ,
ўз мухбиримиз.



БИЛИМИНГИЗНИ СИНАБ КЎРИНГ

1. Фикрлар ва қарашлар ранг-баранглиги тушунчалари қандай умумий фикр билан изоҳланади?
А) Дуализм;
Б) Монизм;
В) Анемизм;
Г) Плюрализм.

2. Конституциямизнинг қайси моддаси давлат тилига бағишланган?
А) 4-моддаси;
Б) 5-моддаси;
В) 16-моддаси;
Г) 25-моддаси.

3. Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар идоралари ходимлари кунини белгилаш тўғрисида»ги қонуни қачон имзоланган?
А) 2006 йил 6 декабрда;
Б) 2007 йил 9 декабрда;
В) 2006 йил 6 ноябрда;
Г) 2008 йил 16 январда.

4. Юртбошимизнинг қайси маърузасида «Демократик жамиятда барча давлат хизматчилари оммавий ахборот воситалари билан яқин ижтимоий ҳамкорлик қилишга ўрганиши керак» деган фикр илгари сурилган.
А) 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида;
Б) 27 июнь – Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари кунига бағишланган табригида;
В) Конституциянинг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида;
Г) 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида.

5. Фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлиги ва ҳуқуқий маданиятини ўстиришдан асосий мақсад нима?
А) фуқаролар эркинлигини таъминлаш;
Б) жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш;
В) эркин фуқаролик жамиятини шакллантириш;
Г) фуқароларнинг ўз ҳуқуқларини чуқур билишлари асосида ўз бурч-лари, вазифаларини аниқ билиб, амалиётда қўллай олишлари учун.

6. 2019 йилда демократия соҳасида энг катта ютуқларга эришган Ўзбекистонни «Йил мамлакати» деб эълон қилган «The Economist» нашри қайси давлатга тегишли?
А) Франция;
Б) Буюк Британия;
В) АҚШ;
Г) Япония.

В преддверии 95-летия



МАСТЕР ГАЗЕТНОЙ ПОЛОСЫ

Любовь Васильевна Мухамеджанова пришла в Объединенную редакцию МВД в 1994 году в качестве корректора. Объем работы был большой, ежедневно прилагалось максимум усилий «шлифовке» текста, к тому, чтобы материал читался легко. Коллектив издания был дружный. Если возникали какие-то сложности и вопросы, вместе находили общее правильное решение.

– В те годы газета имелась в розничной продаже. В любом населенном пункте можно было приобрести ее. Меня однажды нашел двоюродный брат, купив газету в киоске в Казахстане. Увидел мою фамилию в списке выпускающих номер и позвонил, – вспоминает ветеран.

Газету разбирали сразу, так что было чем гордиться. Когда стали верстать ее сами, работать приходилось очень много. Часто домой уходили поздней ночью, а то и под утро. Но никто не роптал, все были увлечены делом. Много было хороших сотрудников, каждый вносил вклад в развитие редакции.

В 2010 году Л. Мухамеджанова вышла на заслуженный отдых. Ныне в кругу большой и дружной семьи воспитывает внуков и не забывает редакцию, ставшую родной. Ведь, посвятив жизнь любимой профессии, становишься неотъемлемой частичкой коллектива, с которым связывает очень многое.

Соб. корр.

Ветераны – наша гордость

ДОМ-МУЗЕЙ ПОЛКОВНИКА



Накануне весенних праздников в Гулистанском районе состоялось значимое событие – открытие дома-музея ныне покойного полковника Кудрата Хатамова. Инициатором создания музея выступил ОВД Гулистанского района.

Кудрат Хатамов родился 5 ноября 1939 года в селе Синтоб Нуратинского района Самаркандской области. В 1958–1963 годах учился в Ленинабадском педагогическом институте, после чего работал учителем в Сайхунабадском районе. Однако судьба привела его в ряды органов внутренних дел.

Начав службу в 1971 году в Гулистанском РОВД с должности инспектора, он зарекомендовал себя как принципиальный и ответственный сотрудник. Уже через короткое время был назначен заместителем начальника РОВД. В 1981–1986 годах проходил обучение в Ташкентской высшей школе милиции, а позднее возглавил отдел охраны УВД Сырдарьинской области. С 1989 по 1993 годы руководил Гулистанским РОВД.

– Отец был для нас образцом для подражания. Мы были свидетелями его дисциплинированности, честности. Видели, как он неустанно трудился ради благополучия народа и был предан своей работе, – говорит сын заслуженного наставника Шарифулло Хатамов. – Мы гордимся тем, что впитали его ценности и учились жить достойно. Отец оставил после себя не только добрую память, но и богатое наследие, которое продолжает вдохновлять людей. Открытие музея в его честь – это не просто признание заслуг, но и важный шаг в воспитании молодежи в духе патриотизма и уважения к труду настоящих подвижников.

Четверть века прослужил в органах внутренних дел Кудрат Хатамов. Его прямота, честность и профессионализм не раз отмечались руководством. В 1995 году он вышел в отставку, но продолжил общественную деятельность, возглавляя Совет ветеранов, наставляя молодое поколение.

В знак признания заслуг полковника К. Хатамова в его доме открыт музей, где собраны фотографии, документы и материалы, рассказывающие о его славном пути.

Дом-музей Кудрата Хатамова символ уважения к тем, кто посвятил жизнь служению закону.

Хуршид МУКИМОВ,
капитан.



AHDGA SODIQLIK BILAN



Nurafshon shahar IIB yo‘l-patrul xizmati inspektori, katta serjant Behzod Qoraboyev joriy yilning o‘tgan davrida 17 nafar spirtli ichimlik iste’mol qilib avtomobil boshqargan, 9 nafar qoidabuzarligi uchun jarima to‘lashdan bo‘yin tovlab qochib yurgan shaxslarni aniqlab, qonun hukmiga havola etdi. Tunlari odamlarning tinchini buzib, avtopoyga tashkil etgan 4 nafar fuqaroning shaxsiga oydinlik kiritib, o‘rinli tartibda chora ko‘rdi.

Yaqinda esa Nurafshon shahrining «Toshkent yo‘li» ko‘chasida xizmat burchini o‘tayotgan vaqtida «Lacetti» rusumli avtomashinani to‘xtatadi. Haydovchining hujjatlarini tekshirib, ba’zi savollarga oydinlik kiritayotgan paytida old o‘rindiqdagi yo‘lovchi bezovtalanayotganini payqaydi. Juftakni rostlab qolmasligi uchun tezda uning yoniga keladi va shaxsini planshet orqali tekshirib ko‘radi. Buni qarangki, Behzodning gumoni o‘rinli chiqdi. Bu kimsa muqaddam o‘g‘rilik jinoyatini sodir etib, sud va tergov organlaridan qochib yurgan B.D. ekan. Qonunbuzar darhol shahar IIBga topshirildi.

Bundan 15 yil avval ilk xizmat faoliyatini Mirobod tumani IIB Aloqa bo‘limi katta muhandisi lavozimida boshlagan lavhamiz qahramoni ustozi, hozirda iste’fodagi podpolkovnik Bahrom Toshmatovdan kasb sirlarini mukammal o‘rgandi. Endilikda uning o‘zi ham safdorlar Sirojiddin Sharofiddinov, Murod To‘xtamurodov va Irisbek Qulumbetov kabi xodimlarga ustoz.

Hozir oliy ta’lim muassasasida sirtdan tahsil olayotgan katta serjant B.Qoraboyev kelgusida ofitser bo‘lishni maqsad qilgan.

Mixli SAFAROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

«YASHIL MAKON» UMUMMILLIY LOYIHASI – AMALDA



Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari xodimlari «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida yaqinda viloyat IIBga biriktirilgan Qarshi tumani Xonobod qishlog‘i hududida joylashgan 16 gektar yer maydoniga 3 mingga yaqin mevali va manzalari daraxt ko‘chatlari, boshqarma sohaviy xizmatlari hamda shahar-tuman IIBlari hovlisi va yon-atrofiga 3 mingdan ortiq manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazishdi. Birgina Qarshi shahar IIOFMB xodimlari ushbu hududning Jayxun ko‘chasiga 500 tup ko‘chat ekib, loyihaga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shdilar.

Bundan tashqari, boshqa tashkilotlar va idoralar qatori, ichki ishlar organlari xodimlari «Qarshi – Ko‘kdala» yo‘lining ikki yon tomoniga 2 mingdan ortiq ko‘chatlarni ekishdi. Yangi nihollarni parvarishlash va sug‘orish ishlari «Qashqadaryo yo‘l ko‘klam» mas’uliyati cheklangan jamiyatga topshirilib, suv inshootlari qurilib, tomchilatib sug‘orish uskunalari bilan ta’minlandi.

O‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

HAM ZAVQ, HAM SHARAF

Andijon viloyati IIB JXX JTSB Patrul-post batalyoni «Isomto‘xta» otliq guruhi inspektori, safdor Asqarali Tojiboyev xalqimiz osoyishtaligi yo‘lida sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan xodimlardan. Tabiati oddiylik, to‘g‘rilikka yo‘g‘rilgan bu yigit bolaligidan jonivorlarga mehri bo‘lakcha. Mana shu tuyg‘u uni 2019-yilda guruhga yetaklab keldi. Bu yerda «Trekker» laqabli xizmat oti bilan tezda til topishdi. «Trekker» ko‘rinishidan baquvvat bo‘lsa-da, tabiatan yuvosh, qaysarlikni bilmaydi.



– Guruhda xizmatni endigina boshlagan paytlarimda boshqa hamkasblarimning otlarini yetaklasam, «Sizga qanday ko‘nyapti?» deb hayron bo‘lishardi, – deydi safdor Asqarali Tojiboyev. – Axir, qishloqda o‘sganman, ot minib ulg‘ayganman. Shundanmi, xizmatga tezda kirishib ketdim. Bilmaganlarimni kasbdoshlarimdan o‘rgandim. Mana, olti yildan buyon «Trekker» bilan birga xizmatdaman.

Serjant Mansurbek Abduvaliyev komandirlik qilayotgan otliq guruhi xodimlariga biriktirilgan 10 ta xizmat otining aksariyati mahalliy zotlarga mansub. Guruh jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash yo‘lida astoydil jonbozlik ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ommaviy tadbirlarda ularning xizmati alohida o‘rin tutadi.

Kuz-qish mavsumida Andijonda uloq o‘yinlari qizg‘in tus oladi. Ko‘pkari o‘tayotgan paytda jamoat tartibini saqlash vazifasi asosan otliq guruh xodimlariga yuklatiladi. Ular xizmat otlari bilan tadbir o‘tkazilayotgan hududlarda hozir bo‘ladi.

Ha, mamlakatimiz ichki ishlar organlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan otliq bo‘linmalar jamoat tartibini saqlashda o‘ziga xos o‘rni bilan ajralib turadi. Safdor Asqarali Tojiboyev kabi abjir, jasur xodimlar xizmat qilayotgan mazkur bo‘linmalar yurtimiz tinchligiga katta hissa qo‘shib kelayotgani quvonarlidir.

Nigoraxon TO‘XTAMATOVA,
o‘z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

BIZNING SUHBAT

BOBUR MANSUROV:

IJODIMIZNI 7 YOSHDAN 70 YOSHGACHA KO‘RISHLARINI ISTAYMIZ



Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatarkansiz, Bobur Mansurov nomi tez-tez quloqqa chalinadi. Hazilkash, ommalashgan videolar bosh qahramoni, kayfiyatni ko‘taruvchi xushchaqchaq yigit... Xullas, bugun undan ba’zi savollarga javob olamiz.

– Sizni ko‘pchilik bloger, sa’natkor hamda vayner, deydi. O‘zingizdan eshitsak...

– Ijodga qiziqishim bolaligimdan boshlangan. O‘zimcha qo‘shiqlar xirgoyi qilib, maktablarda turli sahna ko‘rinishlarida ishtirok etardim. Har bir ijodkor uni xalq tanishi, hurmat qilishini istaydi. Ayniqsa, muxlislar yoningizga kelib, siz bilan rasmga tushishining o‘ziyoq insonga boshqacha zavq bag‘ishlaydi. Vaynerlik men o‘zimni topa olgan bir yo‘nalishim. Blogerlikka esa rasmiy jihatdan daxlim yo‘q. Qaysidir ma’noda men ham vaynlarimni tarmoqlarga muntazam joylab borganim uchun kaminaga bu ibora ham qo‘llanayotgan bo‘lsa, ajab emas...

– Vaynerlik sizga nimalar berdi?

– Oliygohni bitirgach, vaynerlikni o‘zimizga ep ko‘rmaganmiz. Chunki o‘sha paytda vaynerlarni ko‘pchilik yaxshi qabul qilmasdi. Shu sababli ko‘proq kino yoki seriallarda chiqishni istardik. Tavakkal qilib jamoa yig‘dim. Boshida uyaldim, keyinchalik odamlarning munosabati ijobiy tomonga o‘zgardi.

Bir ustozim: «Mayli, bir ikki safar ustingdan kulishar, lekin sen bu yerda ham baribir aktyorlik mahoratingni ishlatyapsan, axir. Qo‘rqma, mana shu yo‘nalishga xuddi kinoda rol ijro qilayotgandek bor vujuding bilan yondashsang, o‘zgacha yangiliklar olib kirsang, tomoshabin mehrini albatta qozonasan», – deya dalda bergandi. U haq bo‘lib chiqdi. Videolarimiz kutganimizdan-da tez ommalashib ketdi. Bu yo‘nalish mening ko‘p orzularim ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ldi. Shuning ortidan elga tanilib, ko‘rsatuvlar, filmlar va kliplarga ham chaqiruvlar ko‘paygandan ko‘paydi. Moddiy ahvolim o‘nglandi, ota-onamning duosini olyapman, millionlab muxlislar orttirdim. Yana bir gap, mana shunday natijalarning hammasini harbiy xizmat yetaklab kelgan!

– Armiya – hayot maktabi. Bu maktabda qanday toblangansiz?

– Men o‘sha davrlarni boshqacha shijoat bilan eslayman. O‘qishga kirolmagach, xizmat tavsiyanomasi imtiyozlariga ega bo‘lishni maqsad qildim. Harbiy xizmatni Farg‘onada o‘taganman. Bir yil davomida rosa charxlanganmiz. Ammo xizmatga ketish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgan mahalim atay qilgandek, qon bosimim yuqori chiqavergan. Boshqa paytlar unaqa holat kuzatilmasdi. Faqat ko‘rik vaqtida shu ahvol bo‘laverardi. Afsuski, shu tariqa dastlabki urinishda armiyaga ham keta olmagandim. Formaga qiziqardim, xizmatga borishimni hamma bilib bo‘lgandi. Tibbiy komissiya qaytargach, keyingi chaqiruvgacha zavodda qo‘riqchi bo‘lib ishladim, haqiqiy harbiy forma bo‘lmasa-da, ish paytida kiyganim, qo‘riqchilar formasi menga ancha taskin bergan. Keyin 2014-yilda hamma bosqichlardan qiynalmay o‘tib, armiyaga ketdim. Xizmat davomida ham o‘zimni aynan san’at tomonlama ko‘rsatdim, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda chiqishlar qildim. Tanlovlarda g‘olib bo‘ldik. Meni shartnoma asosida olib qolishmoqchi bo‘lishdi. Ancha ko‘nikib ham qolgandim. Biroq san’at baribir o‘ziga tortaverardi. Yuqorida aytdim, yutuqlarim ketma-ketligini aynan harbiy xizmat yetaklab kelganini. Imtiyoz bilan o‘qishga kirdim, poytaxtga kelib yo‘limni topdim. Ko‘p ustozlar sabog‘ini oldim.



– Oilangiz istaklaringizni qay darajada qo‘llashgan?

– To‘g‘risi, boshida onamdan boshqa deyarli barcha mening tanlovimga qarshi edi. Dadam shashlik pishirib sotardi, o‘zim ham yonlarida yordam berardim. Onam pedagog, hozir pensiyada. Oilada besh nafar aka-ukamiz. Men to‘rtinchi farzandman. Barchamiz oliy ma’lumotlimiz. Xizmatdan qaytgach, akalarim san’atga emas, balki yuridik yo‘nalishlarga o‘qishga topshirishimni istashardi. «Nima, endi shuncha qiynalib, san’atga topshirasanmi?» ham deyishdi. Faqat onam qarorimni qo‘llab-quvvatlagan. Dastlab ijodiy imtihonlardan juda past ball olganman. Lekin testlarni zo‘r yechib, shartnoma asosida o‘qishga kirganman. Shartnoma pullarini to‘lashda juda qiynalganman. Oilamizda ham vaziyat yaxshi emasdi. Mendan oldin uchala akamni o‘qitishgandi. Yashash xarajatlari ham bor edi. Kursdoshlarim ko‘p qo‘llardi, turli imtiyozlar orqali kontraktlarim ham qoplangan.

– «San’atkorlarning o‘qishi shart emas, tug‘ma iste’dodi bo‘lsa kifoya», – degan fikrlarga munosabatingiz?

– Diplom yoki o‘qish kerak emas deydiganlar, menimcha, uning mashaqqatlarini totib ko‘rmagan. Qiyinchilik bilan o‘qiganlar hamma narsaning qadriga yetishadi. Tug‘ma iste’dod o‘z yo‘liga, lekin oliygoh baribir tarbiyalaydi, kasbiy jihatdan yuksaltiradi. Ilk bilimlarni aynan o‘sha dargohlardan olasiz. San’at bilim yurtida eng malakali ustozlarning sabog‘ini olishga muyassar bo‘ldim. O‘qigan yoki o‘qimaganligi, o‘z ustida qanchalik ishlaganligi aktyorlarning saviya va darajasida baribir bilinib qoladi. Aktyor yangilikka intilishi zarur, uning o‘z talabi va uslubi bo‘lishi kerak.



«Vayn» – bu odatda davomiyligi bir daqiqa va undan sal ko‘proq bo‘lgan qisqa rolikdir. Lekin shu qisqa vaqt mobaynida unda ma’lum bir voqealar mohirona ochib beriladi.

– Tanqidlar qurshovida qolganmisiz?

– Bachkana deydiganlar uchrab turadi. Bu hayot qonuni, hammaga yoqib bo‘lmaydi. Lekin biz ishlayapmiz, mayli odamlar gapirar, kuzatmay ham qo‘yar, bu hammaning o‘z tanlovi. Negaki, hech kimni majburlay olmaysiz. Haqiqiy muxlis o‘zi vaynerlar orasidagi saviyani ular olayotgan mahsulotlarga qarab farqlab oladi. So‘nggi vaqtlar ko‘rayotgan bo‘lsangiz, biz olayotgan vaynlar 8–10 daqiqagayam borib qo‘ymoqda. Bu degani qisqa metrajli filmdek gap. Har bir jarayonni tasvirga olish, uning mehnati juda og‘ir. Kichkina epizodlarni o‘n soatlab qayta va qayta suratga olgan paytlarimiz bo‘lgan. Biz harakatdamiz va ijodimizni 7 yoshdan 70 yoshgacha ko‘rishlarini istaymiz. Bu jarayonda saviyani ushlab turish kerak. Yengil-yelpi senariylardan qochishga intilamiz. Bizda butun jamoa ishlaydi. Senariyni ko‘pincha o‘zim yozaman va jamoadan takliflar olib, uni birgalikda boyitamiz. Talabalik paytimda jahon va o‘zbek adabiyotidan ko‘p kitoblar o‘qiganman. Bu hozirgacha asqatadi.

– Nima deb o‘ylaysiz, O‘zbekistonda vaynerlikning kelajagi bormi?

– Bugun vaynerlar ijod qilyapti, auditoriyasi yildan-yilga oshib bormoqda. Yaxshi kontentlar ko‘payib borgan sari bu yo‘nalish professionallashaveradi, shuning uchun bu yog‘i baribir professionalizmga borib taqaladi. Bu yo‘nalish O‘zbekistonga kirib kelganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Hozircha yaxshi. Kelajakda nima bo‘lishini esa vaqt ko‘rsatadi.

Abror POYONOV suhbatlashdi.

Лучшие в своем деле

НА СТРАЖЕ БЕЗОПАСНОСТИ

Инспектор дорожно-патрульной службы Управления обеспечения безопасного туризма УВД Хорезмской области старший сержант Руслан Норметов – один из сотрудников, чей профессионализм и ответственность заслуживают особого внимания.



Он активно участвует в сопровождении туристов, посещающих регион, и контролирует безопасность дорожного движения вблизи объектов культурного наследия. Благодаря его бдительности и четкому выполнению служебных обязанностей не раз удавалось предупреждать инциденты, связанные с туристами на дорогах области.

Кроме того, в ходе мероприятий инспектор выявил восемь автомобилей, находившихся в розыске, и передал их в распоряжение соответствующих органов.

– Руслан Норметов служит в органах внутренних дел почти 15 лет, – отмечает заместитель начальника Управления обеспечения безопасного туризма УВД области подполковник Марат Худойберганов. – За это время он зарекомендовал себя как грамотный, инициативный сотрудник, достигший значительных успехов в обеспечении безопасности дорожного движения.

Одним из недавних примеров профессионализма инспектора стало задержание нарушителя из Ургенча, который пытался уйти от ответственности, предложив взятку в размере 350 тысяч сумов. Старший сержант Норметов незамедлительно сообщил о попытке подкупа руководству, нарушитель был задержан с поличным.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.
Хорезмская область.

Служба пробации

ЖИЗНЬ С ЧИСТОГО ЛИСТА

В Самарканде прошла ярмарка вакансий, организованная для безработных граждан, а также лиц, состоящих на учете службы пробации, освобожденных из мест лишения свободы, осужденных к исправительным работам.





– К сожалению, не все работодатели готовы трудоустраивать граждан с судимостью, – отметил начальник отдела пробации СОБ УКД ОВД города Самарканда майор Шухрат Мингбоев. – Однако существуют законы, мы отстаиваем права наших подопечных. Необоснованный отказ в приеме на работу грозит административной ответственностью.

По его словам, с начала года служба пробации провела 12 ярмарок вакансий. Опыт показывает, что наличие специальности значительно повышает шансы на трудоустройство. Наибольший спрос – на рабочие руки в сфере жилищно-коммунального хозяйства. Те, кто не имеет профессии, могут пройти обучение в моноцентре «Ишга мархамат». В этом году 16 человек освоили востребованные специальности.

Особое внимание уделяется трудоустройству женщин – работу получили 19 лиц, состоявших на учете.

С поднадзорным контингентом проводится дифференцированная и индивидуальная работа.

– Когда у человека есть работа, жилье, документы и поддержка близких, вероятность рецидива значительно снижается, – отметил наш собеседник. – Однако не у всех поднадзорных в этом плане все нормально. Помогаем им вернуться к нормальной жизни.

Инспекторы посещают поднадзорных, изучают их условия жизни, оказывают содействие в решении выявленных проблем.

Служба пробации продолжает работу по оказанию воспитательного воздействия на поднадзорных, социальной адаптации, предоставляя возможность сделать шаг к новой жизни.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

HAROMDAN HAZAR

Leytenant Umidjon O‘sarov ota kasbi davomchisi. Iste’fodagi mayor Egamberdi O‘sarov Sirdaryo viloyati IIB tizimlarida 13 yil xizmat qilgan. Umidjon xizmatdan ajralmagan holda, Guliston davlat universitetida tahsil olib, o‘tgan yilning aprel oyidan Sirdaryo viloyati IIB YHXB Ma’muriy amaliyot bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlab kelmoqda.



Umidjon haqida so‘rasangiz, safdoshlari talabchan, o‘z burchiga sodiq yigit deyishadi. Yaqinda u kasbi, bergan qasamyodiga sodiqligini yana bir bor isbotladi.

«Toshkent – Jizzax» avtomobil yo‘lining Oqoltin tumanini kesib o‘tgan qismida YPX xodimlari «MAN» rusumli yuk avtomashinasi harakatlanishida notekislikni ilg‘ashadi va uni to‘xtatishadi. Tekshirib ko‘rilganida haydovchi, Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi fuqaro spirtli ichimlik ta’sirida avtomobil boshqarib kelayotgani aniqlanadi. Holat yuzasidan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Haydovchi bir necha soatdan keyin viloyat IIB YHXBga kirib keladi. U tirikchiligi avtomashina orqasidan ekanini, oilada yolg‘iz boquvchiligini aytib, leytenantdan bayonnomani yo‘q qilishni yoki boshqa yengilroq qoidabuzarlik bilan almashtirishni so‘raydi. Buning evaziga esa 1000 AQSH dollari berishini aytadi.

Umidjon bu taklifni qat’iy rad etib, haydovchiga bu xatti-harakati jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishini tushuntiradi. Ammo u qariyb bir necha soat davomida boshqarma binosi oldidan ketmay, qayta-qayta leytenantni yo‘ldan urmoqchi bo‘ladi.

...Umidjon O‘sarovning bildirgisi asosida o‘tkazilgan tezkor tadbirda haydovchi leytenantga 700 AQSH dollari va 4 million so‘m miqdorida pora berayotganida ushlandi. Holat bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atildi.

Kasbiga sodiqlikni, halollikni o‘ziga maslak qilgan Umidjon O‘sarov oilali. U turmush o‘rtog‘i bilan bir nafar farzandni voyaga yetkazmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

VIRTUAL DUNYO

SIZGA PUL YUTUG‘I CHIQ(MA)DI

Keyingi paytda telegram, facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali akkauntlarga «Tabriklaymiz, sizga katta pul yutug‘i chiqdi», «Sizning eski rasmingiz topildi» deb yozilgan «apk» fayllar kelayotganidan ko‘pchilikning xabari bor. Xo‘sh, bunday xabarlarning qanday xavfli jihati bor? Tobora raqamlashayotgan dunyoda kiberjinoyatchilar yana qanday aldov usullarini o‘ylab topishyapti?



Sirdaryo viloyati IIB TQX Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘limiga tushayotgan murojaatlar orasida fuqarolarning bank plastik kartasidan pul yechib olingani to‘g‘risidagi arizalar soni tobora ko‘payib boryapti. Bunga uyali aloqa vositasi yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlar oshgani hamda bundan firibgarlar ustomonlik bilan foydalanayotgani sabab bo‘lmoqda.

Jumladan, oxirgi 6 oy davomida telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali kontaktlarda har xil xabarlar «apk» fayllar orqali tarqatilyapti. Bu «apk» fayllar ilova dasturlar bo‘lib, «xabar»ning ustiga bosishingiz bilan ular telefoningizga o‘rnatiladi. Va siz bilmagan holda telegramingizni, kontaktlaringizni o‘rganadi. Ko‘p o‘tmay, telefoningizdagi pul o‘tkazishga xizmat qiluvchi ilovalar orqali darrov mablag‘ingizni yechib oladi. Qo‘shimchasiga sizning nomingizdan kontaktdagi tanishlaringizga yuqoridagi «xabar»ni yuboradi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: bunday holatlarda yechib olingan pullar qayerga ketganini aniqlash va ularni qaytarib olish mumkinmi?

Pul mablag‘ini yechib olgan shaxslarning IP manzilini aniqlash mumkin. Ko‘pincha ular Rossiya, Belarus, Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi soxta akkauntlar bo‘lib chiqadi. Ammo pul qaysi bankka borib tushganini aniqlashning iloji yo‘q. Chunki o‘marilgan pullar biron bir shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishi shart bo‘lmagan kriptobirjalar vositasida kriptovalyutaga aylantiriladi. Natijada firibgarlarning izi yo‘qoladi.

Mirzaobod tumani «Navro‘z» mahallasida yashovchi 28 yoshli M.N. tanishirishlarda bu pullar Buyuk Britaniyadagi xakerlar tomonidan yechib olingani aniqlangan bo‘lsa-da, jinoyatchilarni fosh etishning imkoni bo‘lmadi.

Keyingi paytda kiberfiribgarlar o‘ylab topgan yana bir jinoiy sxema quyidagicha ishlaydi. Ular biror bir shaxsga qo‘ng‘iroq qilib, tijorat bankidan ekanini, fuqaro nomiga kredit rasmiylashtirilganini aytishadi. Tabiiyki, bunday xabardan ko‘pchilik tashvishga tushadi. Shu pallada o‘zini «Markaziy bankdanman» deb tanishtirgan boshqa bir kishi qo‘ng‘iroq qiladi va tekshirib, firibgarlarni aniqlash uchun barcha plastik kartangiz va boshqa ma’lumotlarini so‘raydi. Shoshilinch bezovtalikda ma’lumot yuborilishi bilanoq kartadagi pul mablag‘i yechib olinadi. Bunday usul Guliston, Boyovut, Sirdaryo tumanlarida yashovchi bir necha fuqarolarga nisbatan qo‘llanilgan.

KIBEROLAMNING IKKINCHI YUZI

KIBERSPORT NIMA?

So‘nggi yillarda «kibersport» atamasiga tez tez duch kelayotgan bo’lishingiz tabiiy. Kibersport – videoo‘yinlardan foydalangan holda raqobatga kirishishdir. Kibersport bellashuvlari ko‘pincha uyushgan, ko‘p o‘yinchili videoo‘yin musobaqalari shaklida bo‘ladi, ayniqsa professionallar o‘rtasida, yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib uyushtiriladi. 2010-yillarga kelib, kibersport videoo‘yinlar sanoatida muhim omil bo‘lib, ko‘plab mobil va kompyuter o‘yinlari ishlab chiqaruvchi gigant kompaniyalar uchun katta daromad manbaiga aylanishga ulgurdi. Hozirda kibersport bo‘yicha ko‘p davlatlar o‘z terma jamoalari va alohida tuzilmalariga ham ega. Jumladan, O‘zbekistonda ham Kibersport assotsiatsiyasi o‘z faoliyatini olib boradi!

Kiberjinoyatchilik ko‘lami mana shunday aldovlar bilan tugamaydi. Keyingi paytda facebook ijtimoiy tarmog‘i orqali chet eldan katta miqdorda go‘yoki meros yoki naqd pul yuboraman, deb pul mablag‘ini yechib olish holatlari ham kuzatilmoqda. Unga ko‘ra, bir necha million dollarlik pullarni yuborayotgani to‘g‘risidagi suratlar ko‘rsatiladi. Bu pullarni olish uchun faqat bir necha yuz yoki ming dollar pochta va yo‘l xarajatlarini to‘lasangiz bas, deb ishontirishadi. Afsuski, ayrim sodda yurtdoshlarimiz mana shunday firibgarlik qurboniga aylanib qolishmoqda.

Bo‘limimiz xodimlari tomonidan yuqoridagi kabi bir nechta firibgarlik holatlari fosh etilib, aybdorlar jinoiy javobgarlikka tortildi. Afsuski, ba’zan xorijlik firibgarlarga aldanib qolayotgan yurtdoshlarimizga yordam berishning iloji bo‘lmayapti. Shuning uchun har bir fuqarodan telefoniga kelgan xabarlarga nisbatan hushyor munosabatda bo‘lishni so‘rab qolardik.

Jasur SARIBOYEV,
leytenant.
Sirdaryo viloyati

СОҲАВИЙ ХИЗМАТЛАРДА

ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ УЧУН

Мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасида кенг кўламли чора-тадбирлар олиб борилмоқда. Зеро, озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва аҳоли эҳтиёжига етарли даражада, энг муҳими, сифатли ҳолда етказиб бериш давр талаби ҳисобланади.



Тошкент шаҳар ИИББ ЖТСБ бўлинмалари Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи ходимлари ҳам пойтахт Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармаси ҳамда туманлар бўлимлари билан ҳамкорликда бозорлар ва савдо объектларида назорат тадбирларини ўтказиб келишмоқда.

– Шаҳримиз ҳудудида эпизоотик ва эпидемик вазиятни барқарорлаштириш борасида ҳудудий ветеринария ташкилотлари ҳамда бошқа мутасадди идоралар ходимлари билан ҳамкорликда бир қатор чора-тадбирлар тизимли равишда амалга оширилмоқда, – деди ИИББ ЖТСБ Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи командири, лейтенант Азизбек Ҳайитов. – Йил бошидан буён ветеринария, ветеринария-санитария қоидаларини бузган 159 нафар фуқарога нисбатан маъмурий баённома тузилиб, жарима қўлланилди.

Хусусан, ветеринария ҳужжатисиз олиб кетилаётган, келиб чиқиши номаълум бўлган 2296 килограмм гўшт, 3253 литр сут, 19655 дона тухум ҳамда 8307 килограмм калла-поча, ўпка, жигар, юрак, қорин каби маҳсулотлар истеъмол қилишга яроқсизлиги туфайли утилизация қилинди.

Яккасарой туманидаги «Аския» бозорида бўлиб, ветеринария-санитария экспертиза лабораторияси ходимлари Дилафруз Яхшиева ва Гулчеҳра Шерматова ҳамда ИИББ ЖТСБ Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи ходимлари, сафдорлар Жамшид Миробидов ва Мардон Искандаровларнинг фаолияти билан яқиндан танишдик. Улар сотувга чиқарилаётган озиқ-овқат маҳсулотларининг яроқлилигини текшираётган экан. Текшириш давомида истеъмолга яроқсиз деб топилган маҳсулотлар савдосини чеклаш, уларни зарарсизлантириш ва савдо мажмуалари ҳудудида ветеринар осойишталикни таъминлаш доимий назоратга олинганлигининг гувоҳи бўлдик.

Шу ўринда айтиш керакки, сифатсиз, истеъмолга яроқсиз маҳсулотлар ўз вақтида аниқланиб, зарарсизлантирилмаса, одамлар саломатлигига салбий таъсир қилиши турган гап. Буни яхши англаб етган Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи ходимларининг тегишли идора вакиллари билан ҳамкорликда олиб бораётган саъй-ҳаракатлари озиқ-овқат хавфсизлиги учун энг муҳим вазифа саналади.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.
Тошкент шаҳри.



КАСАБА УЮШМАЛАРИ ФАОЛИЯТИДАН

МАНФААТЛАР ҲИМОЯСИ МУҲИМ

ИИВ таркибий бўлинмалари ходимлари Бирлашган касаба уюшмаси қўмитаси иш берувчи билан ҳамкорликда 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси, мазкур ҳужжат асосида қабул қилинган давлат дастури ижросини таъминлаш асносида ходимларни ижтимоий ҳимоя қилишга алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Бирлашган касаба уюшмаси қўмитасининг ҳисобот сайлов конференциясида бу борада атрофлича сўз юритилди.





Хусусан, Ўзбекистон давлат муассасалари ва жамоат хизмати ходимлари касаба уюшмаси республика кенгаши ҳамда Тошкент шаҳар кенгаши мутасадди раҳбар ва ходимлари иштирок этган тадбирда вазирликда хизмат қилаётган ходимларнинг ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий манфаатларини ҳимоялашга қаратилган ишлар ҳақида маълумот берилди. Шунингдек, Бирлашган касаба уюшмаси қўмитаси раиси, полковник Ҳамза Махсумовнинг охирги беш йил мобайнида қўмита томонидан бажарилган ишлар бўйича ҳисоботи тингланди.

Очиқ мулоқот, қизғин баҳс-мунозараларга бой бўлган конференция доирасида ИИВ таркибий бўлинмалари ходимлари касаба уюшмаси қўмитасининг раиси, қўмита аъзолари сайланди. Тафтиш комиссияси раиси ва унинг таркиби тасдиқланди.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

HAMISHA OLG‘A INTILIB

Mamlakatimizda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor va imtiyozlar natijasida har bir sohada yuksak muvaffaqiyatlarga erishayotgan yoshlarning safi tobora ortib bormoqda. Ular o‘zlarining kreativ g‘oyalari, betakror loyihalari va aniq maqsadlari bilan Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ana shunday iqtidorli yoshlardan biri shijoatli yosh xodima leytenant Diyora Raimovadir.



IIV 1-sonli Toshkent akademik liseyida tahsil olgan Diyora Jamoat xavfsizligi universitetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2023-yilda «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi» sohibasi bo‘lgan va 2024-yili Toshkent davlat yuridik universitetining magistraturasiga davlat granti asosida o‘qishga kirgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutiga 4 oylik qayta tayyorlash o‘quv kursi tinglovchisi sifatida tavsiya etilgan.

O‘tgan yillar davomida uning «Amir Temurning huquqiy va harbiy tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari», «Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-huquqiy qarashlari» hamda «O‘zbekiston Respublikasida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatining huquqiy asoslari, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlari» risolalari nashr qilingan, 30 ga yaqin ilmiy maqolalari, tezislari xorijiy mamlakatlar hamda respublikamizning ilmiy jurnal va konferensiya to‘plamlarida chop etilgan. Diyora ayni vaqtda poytaxtimizning Chilonzor tumani IIOFMB 2-sonli IIB HPB inspektori lavozimida xizmat olib bormoqda.

– Ustozlarimdan olgan saboqlarim hayotimning muhim poydevori bo‘ldi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bugungi yutuqlarim ortida ularning ham zahmatli mehnati va qo‘llab-quvvatlashi yotadi. Xususan, yuridik fanlar doktori, dotsent Muqaddasxon Ahmedova menga nafaqat huquqiy bilimlarni, balki kasbga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishni ham o‘rgatdi. Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarimga chuqur minnatdorlik bildiraman va ularning ishonchini oqlash uchun sidqidildan xizmat qilishga intilaman.

Leytenant Diyora Raimova ichki ishlar organlari tizimida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy va kitobxonlik tadbirlarida ham faol ishtirok etib keladi. Jumladan, yaqinda IIV tizimlarida xizmat olib borayotgan xotin-qizlar o‘rtasida Jizzax viloyatining Zomin tumanida bo‘lib o‘tgan forum doirasida «Zakovat» intellektual o‘yinining final bosqichida IIBB sharafini himoya qilib, jamoa bilan faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan.

Bolaligidan sportga mehr qo‘ygan Diyora kursantlik yillarida qo‘l jangi va yugurish musobaqalarida faol ishtirok etib, ko‘plab yutuqlarga erishgan. Xususan, 2021-yil qo‘l jangi sport turi bo‘yicha Toshkent viloyati kubogi musobaqasida 55 kg vazn toifasida 1-o‘rin, xuddi shu yili «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni kubogi» musobaqasida 3-o‘rin, 2022-yil qo‘l jangi sport turi bo‘yicha o‘smirlar va qizlar hamda professional sportchilar o‘rtasida pantera ochiq birinchiligida 53 kg vazn toifasida 1-o‘rin, 2023-yil Toshkent shahrida «Men g‘olib» 10 kilometrga yugurish marafonida 2-o‘rin, 2023 yil «Yangi O‘zbekiston – 12 km» yugurish marafonida yakka tartibda ishtirok etib, 1-o‘ringa sazovor bo‘lgan.

– Har bir ichki ishlar organi xodimi sport bilan shug‘ullanishi lozim, deb hisoblayman. Jismoniy tayyorgarlik nafaqat kasbiy mahoratni oshiradi, balki insonning iroda, chidamlilik va qat’iy intizomini ham shakllantiradi. Shu bois doimo sport bilan muntazam shug‘ullanishga vaqt ajratib kelaman, – deydi Diyora.

Undan «Nima uchun sportni emas, ichki ishlar organi yo‘nalishini tanladingiz?» deb so‘raganimizda, bu sohaga bolaligidan qiziqishini, otasining el-yurt tinchligi yo‘lida fidoyilik bilan xizmat olib borishiga havas qilib ulg‘ayganini aytdi.

Diyoraning orzulari bir olam. Eng avvalo, o‘zi tanlagan sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib, otasining yuzini yorug‘ qilish, ustozlari ishonchini oqlash. Shu bilan birga, kelajakda vatanimiz sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilib, yanada yuqori natijalarga erishish, xotin-qizlar sporti rivojiga munosib hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

EHTIYOT BO‘LING, FIRIBGARLAR!

«...ISHLAMAY TOPGANING – TOSH»

«Ishlab topganing – osh, ishlamay topganing – tosh», deydi donolar. Darhaqiqat, mehnatsiz kelgan narsaning barakasi bo‘lmaydi va u yaxshilikka xizmat qilmaydi. Afsuski, bugungi kunda negadir aksariyat odamlar bitta lotoreya yoki o‘yin o‘ynab, katta miqdorda pul yoki avtomobil yutib olish xayoli bilan yashaydi. Bunday insonlar tezda, hech qanday qiyinchiliksiz va jonini koyitmasdan katta mulk egasi bo‘lishni yoxud boyib ketishni xohlaydi. Vaholanki, bunday orzu bilan yurganlar firibgarlarga tayyor o‘lja bo‘ladi, xolos.

Qiziriqlik Vohid Salimov ham televizor orqali mashina yutib olganlarga havasmand bo‘lib yurganlardan edi. Bir kuni u telegram ijtimoiy tarmog‘ida «Aka-uka» nomli shou-kanalga ulanib qoladi va mashina yutib olish mumkinligi haqidagi e’lonni ko‘rib, o‘zini sinab ko‘rishga qaror qiladi. E’londa ko‘rsatilgan karta raqamiga dastlab 150 ming so‘m miqdorida pul o‘tkazadi. Birozdan so‘ng, uning telefoniga «Tabriklaymiz! Siz «Damas» avtomobilini yutib oldingiz!» degan xabar keladi. Kutilmagan «xushxabar»dan quvonib ketgan V. Salimov avvaliga biroz ishonqiramaydi. Lekin firibgarlar uning telegram akkauntiga ilgari g‘olib bo‘lganlarning foto va video xabarlarini yuborib, uning ishonchiga kirishadi.

Shu tariqa firibgarlar qaramog‘iga ilingan Vohid Salimovdan shaxsiy ma’lumotlari haqida batafsil so‘rab olishadi. So‘ngra mashinani rasmiylashtirish uchun so‘ralgan 5 million 300 ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘ini firibgarlarning kartasiga o‘tkazib beradi.

Na mashinadan, na chaqiruvdan xabar bo‘lavermagach, V. Salimov surishtirishni boshlaydi. Biroq hech qanday o‘yin ham, sovrin ham yo‘qligini bilgach, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushadi. Chora topolmagach, ichki ishlar organlariga murojaat qiladi. Tezkor surishtiruvlar natijasida Surxondaryo viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo‘limi va Qiziriq tuman IIB xodimlari aybdor shaxslarni qo‘lga olishdi.

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlardagi turli aldovlarga ishonib, Vohid Salimov kabi kuyib qolganlar bugun ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Nega ularning soni ortmoqda? Chunki, g‘oyibdan kelgan boylik ko‘zimizni ko‘r qiladi. Shuning uchun ham aldovlarga darrov ishonamiz. Firibgarning tuzog‘iga tushmay, desangiz, avvalo, hushyorlikni qo‘ldan boy bermay, hamisha rizqingizni halol yo‘l bilan topish payida bo‘ling. Axir, aytishadi-ku, «mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing».

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

IIV Faxriylar kengashi, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti rahbariyati va shaxsiy tarkibi iste’fodagi polkovnik

Mars KASIMOVning

vafot etgani munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga chuqur ta’ziya bildiradi.

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ҚОРИНДА ЙИҒИЛСА ДАМ...

Қорин бўшлиғида елнинг ортиқча тўпланиб қолиши, яъни қориннинг дам бўлиши тиббиётда метеоризм, деб аталади. Бунда қорин шишади, ҳатто баъзида нафас ва юрак фаолиятида ўзгаришлар юзага келиши мумкин. Айтиш керакки, метеоризмдан қийналадиганларнинг ҳаммаси ҳам шифокорга мурожаат этавермайди. Бу нотўғри. Негаки, олимларнинг таъкидлашича, қорин дам бўлиши организмда кечаётган жиддий бузилишлардан даракдир. Бир қарашда оддий ҳолдек туюлган метеоризм, ҳатто ўткир жарроҳлик касалликларигача сабаб бўлиши мумкин. Шу боис қориннинг дам бўлиш сабабларини шифокор ёрдамида аниқлаштириб, тегишли даволаш муолажаларини амалга ошириш мақсадга мувофиқ.



Аксарият инсонлар қоринда йиғиладиган газдан азият чекканда, дарҳол дори воситалари билан бартараф этиш чораларини кўради. Аммо рационни қайта тузиш орқали ҳам ошқозонга ёрдам бериш мумкин. Қуйида қориннинг дам бўлишига олиб келувчи 5 та маҳсулотдан огоҳлантирамиз.



УЗУМ

Ҳар қандай узум истеъмол қилинганда, ошқозон уни ҳазм қилишга қийналади. Фруктозага бой бўлган ушбу мева газ ишлаб чиқаради ва қорин шишишига олиб келади. Бундан ташқари, узум жуда юқори калорияли бўлгани боис меъёрни унутмаслик керак.

КАРАМ

Аслида карам энг фойдали сабзавот: у клетчатка, турли хил минераллар ва К витаминига бой, лекин қориннинг дам бўлиши ҳамда шишишига олиб келади. Қовурилган ёки қайнатилган карамни эса исталган вақтда ейиш мумкин.

НОН ВА УН МАҲСУЛОТЛАРИ

Оқ ундан тайёрланган нон ва ҳар қандай ун маҳсулотларининг иссиғи чекланган бўлиши керак, чунки у организмга ортиқча углевод юкидан бошқа ҳеч нарса келтирмайди. Нон тайёрлашда ишлатиладиган хамиртуруш ва шакар ошқозонда газ ҳосил бўлишини ва ферментациясини қўзғатади. Натижада қорин шишади ва бошқа кўплаб ноқулай ҳис-туйғулар пайдо бўлади. Нондан умуман воз кеча олмайдиганлар донли ундан тайёрланган, хамиртуруш ишлатилмаганини танлаши мақсадга мувофиқ.

МУРАББО ВА ТВОРОГ

Барча сут маҳсулотларидаги лактоза бактериялари қоринни шиширади ва овқат ҳазм қилиш қийинлашади. Айниқса, агар улар мева ва шакар билан истеъмол қилинса, вазият кескин ёмонлашиши мумкин. Овқат ҳазм қилиш учун бундай комбинация қийинчилик туғдиради: оқсиллар узоқ вақт парчаланади ва шу орада ширинлик ачий бошлайди.

ГАЗЛИ СУВ

Диетологлар ширин газланган ичимликлар ичишни тавсия этмайди. Оддий газли ичимликларда ҳаво пуфакчалари бор, бу табиий равишда ошқозон ҳажмининг ошишига олиб келади. Қорин шишиши 3–4 соатгача давом этиши ва оғирлик ҳамда безовталик билан кечиши мумкин.

Энди эса қорин дам бўлганда, организмга дориларсиз қандай енгиллик бериш мумкинлиги ҳақидаги тавсияларни санаб ўтамиз.

ЙОГУРТ

Қорин дам бўлганида, ёғсиз, мевасиз йогурт енг. Харид вақти маҳсулот қадоғига диққат қилинг, ёғлилик фоизи кам бўлишидан ташқари, қанд миқдори ҳам оз бўлиши лозим.

ҚАТИҚ

Овқат ҳазм бўлмаслиги билан боғлиқ безовталик келиб чиққанида, 1 стакан қатиқ ёки кефир ичинг. Қатиқ таркибидаги бактериялар ичаклар микрофлорасига ижобий таъсир кўрсатади.

БАНАН

Ҳаддан ортиқ кўп туз истеъмол қилсангиз, ора-чора банан еб туринг. Таркибидаги калий ҳисобига банан қориндаги спазмни енгиллаштиради, шу билан бирга, организмдаги тузнинг осон чиқиб кетишини таъминлайди.

ЗАНЖАБИЛ

Инфекция тушиши оқибатида келиб чиқадиган қорин оғриқларида занжабил қўшилган чой айни муддао. Занжабилли чойни эрталаб оч қорингa, озроқ асал қўшиб ичиш тавсия этилади.

МОЙЧЕЧАКЛИ ЧОЙ

1 чойқошиқ мойчечак гулини 1 стакан қайноқ сувда дамлаб, 15 дақиқа тиндиринг. Сўнг докада сузиб, оз-оздан ичинг. Чойни овқатлангандан сўнг ичсангиз, қорин оғриқлари безовта қилмайди.

Тавсияларга амал қилишдан аввал мутахассис билан маслаҳатлашинг.

Адолат ФАЙЗИЕВА
тайёрлади.

ТЎҒРИ ОВҚАТЛАНИШНИНГ МУҲИМ ҚОИДАЛАРИ

Аслида танамиздаги барча касалликлар нотўғри овқатланиш оқибатида келиб чиқади. Қуйидаги тавсияларга амал қилсангиз, фойдадан холи бўлмайди.



* Овқатланиш рационингизга сабзавот ёки меваларни қўшиш орқали организмингизни керакли витаминлар билан таъминлашга эришасиз. Масалан, нонуштада истеъмол қилмоқчи бўлган бўтқангизга ёки творогга мевалар, тушлик рационингизга сабзавотли салатни қўшинг. Кечки овқат учун эса пиширилган сабзавотлардан истеъмол қилиш мақсадга мувофиқ.

* Кун давомидаги оддий ҳолатлар ҳам саломатлигингиз учун муҳим ҳисобланади. Айримлар оч бўлмаса-да, музлаткичдан доимий равишда бирор нарса олиб ейиш, шунчаки, ширинлик билан иссиқ қаҳва ичишни, овқат тайёрлаш жараёнида уни-буни тотиб кўришни одат қилган. Бу биринчи галда нотўғри овқатланишга киради, иккинчидан, вазн ортишига сабаб бўлади.

* Соғлом бўлишнинг энг муҳим қоидаларидан бири – овқатланиш рационингиздан туз ва шакар маҳсулотини аста-секин чиқариб ташлашдир.

* Қайнатилган сувни кам-камдан, тез-тез ичиб юришни одат тарзига айлантиринг.

* Овқатланиш жараёнида таъбингиз ёқтирмаган маҳсулотни мажбуран истеъмол қилманг, ҳар бир луқмангизни роҳатланиб чайнанг.

Салима АБДУРАҲМОНОВА,
Наманган вилояти ИИБ Тиббиёт бўлими поликлиникаси диетолог шифокори.

Тема для размышления

В БОРЬБЕ ЗА ЧИСТОТУ



Современный мир задыхается от мусора. Пластиковые бутылки, окурки, пакеты и бытовые отходы заполонили улицы, парки, водоемы. Загрязнение среды стало не только экологической, но и социальной проблемой, требующей вмешательства не только коммунальных служб и активистов, но и сотрудников органов внутренних дел. Ведь мусор – это не просто отходы, а зачастую свидетельство правонарушений, неуважения к закону и окружающим.

Мусор – это не только вопрос экологии, но и безопасности. Брошенные бутылки на детских площадках, стихийные свалки – все это несет риск для людей. Нередко такие свалки становятся прибежищем для маргинальных элементов общества, становятся источником пожаров.

В то время как службы, ответственные за поддержание санитарного состояния города, работают круглосуточно, наблюдаются случаи, когда некоторые граждане не выбрасывают отходы в установленные места. Это наносит ущерб не только облику города, но и окружающей среде.

Органы внутренних дел и Национальная гвардия наделены полномочиями, необходимыми для привлечения к административной ответственности лиц, совершивших правонарушения в сфере экологии и охраны окружающей среды.

Органы внутренних дел совместно с Национальной гвардией и другими заинтересованными министерствами и ведомствами проводят рейды, которые, во-первых, выявляют нарушения и нарушителей в сфере санитарии и экологии, во-вторых, ведут профилактическую работу по предупреждению выброса мусора в неположенном месте, напоминают гражданам и предпринимателям санитарные и экологические правила и нормы, предупреждают об ответственности.

За прошедший период марта 2025 года в Ташкенте:

- **Управление санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья выявило 26 случаев,**
- **Управление Национальной гвардии – 337,**
- **Управление экологии, охраны окружающей среды и изменения климата – 176,**
- **Главное управление внутренних дел – 2099 случаев выброса мусора в неположенных местах.**

За выявленные по столице в общей сложности 2638 нарушений наложены штрафы на сумму 1 110 500 000 сумов.

Соответствующие организации продолжают работу.

Кроме того, Национальная гвардия, Министерство внутренних дел, Министерство культуры и туризма, Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата, Комитет санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья Республики Узбекистан запустили совместный проект Tozalik. Цель проекта – добиться чистоты на улицах, в парках и скверах, в махаллях наших городов и сел.

Задача инициаторов проекта – привить согражданам культуру заботы о чистоте наших улиц и собственном здоровье, приучить не бросать мусор где попало.

Как общество может помочь?

Борьба с мусором – задача всего общества. Люди могут активно участвовать в этом процессе:

– сообщать о нарушениях – будь то выброс мусора в неположенном месте или деятельность незаконной свалки;

– поддерживать инициативы по раздельному сбору и утилизации отходов;

– не оставаться равнодушными, когда кто-то мусорит на улице – воспитание начинается с личного примера.

Мусор – это не просто бытовая проблема, а маркер общественной ответственности. Если люди считают нормальным выбросить бутылку мимо урны или сжечь отходы, значит есть пробелы в правосознании. Сотрудники органов внутренних дел играют ключевую роль в борьбе с загрязнением, но без поддержки общества их усилия будут неэффективна. Только совместными усилиями можно добиться того, чтобы наши улицы, парки и природные зоны оставались чистыми. Ведь чистота – это не только про экологию, но и про уважение к закону и друг к другу.

Соб. корр.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(31 мартдан – 6 апрелгача)



Қўй. Бу ҳафта энг қизиқарли ва омадли даврлардан биридир. Шу кунларда куч-ғайратли ва ташаббускор бўлишга, ҳар қандай мақсадга эришишга интилинг. Дам олиш кунлари имкон қадар эҳтиётkор бўлинг. Чунки нохуш вазиятга тушиб қолиш эҳтимоли юқори.



Бузоқ. Муроса қилиш қобилияти ва кучли ички сезиш ҳисси даромадли лойиҳаларда иштирок этиш имкониятини беради. Нимани нидир қурбон қилишга тўғри келади, бироқ шунда ҳам ҳеч нарса йўқотмайсиз, чунки ҳаммаси фойда билан қайтади.



Эгизаклар. Руҳий ўсиш, билимларни бойитиш учун мақбул давр. Йўлингизда кўпгина тўхтатиб қолувчи омиллар учраши мумкин. Кучли ирода ва мақсад сари интилиш туфайли ҳар қандай истакка эришиш мумкинлигини унутманг.



Қисқичбақа. Қобилиятларни намоён этиш, ностандарт ечимларни топиш, иш жойида юқори поғоналарни эгаллаш қўлингиздан келади. Мақсадга эришиш йўлида халақит қилаётган барча нарсалардан қутулинг. Ҳеч кимга сизни ишдан чалғитишига изн берманг. Бироқ баъзи режалардан воз кечишга тўғри келади.



Арслон. Бу даврда чарчоқ, ҳолсизлик, руҳиятнинг тушиши каби ҳолатлар кузатилиши мумкин. Имкон қадар дам олишга ва куч тўплашга ҳаракат қилиб, саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Фақат шундагина ўз режаларингизни, жумладан, молиявий масалаларни ҳал этишга муваффақ бўласиз.



Паризод. Бу даврда тўғри ечимларни топиш осон кечади. Сиздан нима кутишаётганини юракдан ҳис қилганингиз учун кучли масъулият ва касбий маҳоратни намоён эта оласиз. Бироқ ўзингизни ёмон ҳис қила бошласангиз, ишдан бироз таътил олишни тавсия этамиз.



Тарози. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, таъбни хира қилувчи ва кўнгилни оғритувчи барча ҳолатлардан узоқлашинг. Саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Оддий ҳаёт тарзидан оз бўлса-да четга силжиш кайфиятингизга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.



Чаён. Қанча кўп меҳнат қилсангиз, ҳамкасблар орасида шунча кўп ҳурмат ва эътиборга сазовор бўласиз. Эрталаб ишга вақтлироқ келиш ёки кечқурун кечроқ кетишдан чўчиманг – барча саъй-ҳаракатларингиз мукофотини оласиз.



Ўқотар. Ҳафта омадли келади. Ўзингиз учун айнан ким қадрли эканини англаб етасиз ва бу сизни ёқимли ҳайратга солади. Ушбу даврнинг иккинчи ярми бизнес, иш муносабатларини йўлга қўйиш учун жуда қулай. Молиявий масалада яхши хабар ёки катта маошли янги лавозимга таклиф олишингиз мумкин.



Тоғ эчкиси. Бу кунларда имкон қадар ишсиз ўтирманг, чунки келаётган ҳафта моддий ҳолатни анчайин яхшилаб олиш учун барча имкониятларни тақдим этади. Шанба куни (айниқса, нотаниш инсонларга нисбатан) ўта ишонувчанлик сизга панд беради. Якшанба ҳар жабҳада ижобий натижаларни ваъда қилмоқда.



Қовға. Касбий фаолиятингизда юксалиш кузатилиб, иш унумдорлиги ортади. Бу борадаги учрашув ва суҳбатлар муваффақиятли кечади, режадаги ҳар бир ишни ортга сурмай, ўз вақтида бажаришга ҳаракат қилинг. Ҳафта ўрталарида оила аъзоларингиз билан тушунмовчиликлар юзага келиши мумкин.



Балиқ. Бегим кунлари салбий ҳолат ва муносабатларга таъсирчанлигингиз ортади. Уй ташвишлари, оилавий муносабатлар хаёлларингизни бутунлай қамраб олади. Нима бўлганда ҳам ўзингизни қўлга олиб, ҳаёт ва унинг ташвишларига хотиржамлик билан қаранг. Дам олиш кунлари бироз чалғиш учун меҳмонга боринг ёки табиат қўйнига сайрга чиқинг.

XIZMAT LIBOSIDAGI OILA

Ichki ishlar organlarida xizmat qiladigan sulolalar vakillari ko‘p uchraydi. Bugungi qahramonlarimiz – ota va ikki o‘g‘il el-yurt osoyishtaligini ta’minlash yo‘lini tanlagan.



Oila boshlig‘i iste’fodagi podpolkovnik Furqat G‘ofurov ichki ishlar organlari safida 33 yil xizmat qilgan. Uning kasbi davomchilari katta o‘g‘li Farrux viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti, kenja o‘g‘li Faxriddin esa Samarqand viloyati IIB huzuridagi tergov boshqarmasi terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish bo‘linmasi boshlig‘i, unvoni mayor.

– Shohista bilan 40 yil birga yashayapmiz, – deydi F. G‘ofurov. – Qiyinchiliklarga qaramay, turmush o‘rtog‘im menga va muvaffaqiyatlarimga ishonch bildirdi. Birgalikda munosib farzandlarni tarbiyaladik. Hozir rafiqam maktabga rahbarlik qiladi. Bitta-yu bitta qizimiz Aziza onasining izidan borib, Samarqand davlat universitetida dars beradi, professor.

Biz bilan suhbat chog‘ida kenja o‘g‘il Faxriddin o‘zining bolalik xotiralari bilan o‘rtoqlashdi, tergovchining ish kunlari haqida so‘zlab berdi. U bolaligini eslar ekan, uyga toliqqan, lekin o‘z mehnatidan mamnun holda qaytadigan otasini ko‘z oldida gavdalantiradi.

– Otam hamisha xizmatga sodiq bo‘lgan, jamoaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan. Onam padari buzrukvorim uchun ishonchli tayanch edi, – deya eslaydi mayor Faxriddin Ibragimov. – Hayotini umr yo‘ldoshi va farzandlariga bag‘ishlab, ishlashga va o‘zini takomillashtirishga ham vaqt topgan. Shu bilan birga, uy-ro‘zg‘or ishlariga ham ulgurardi.

Faxriddin ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini Samarqand shahar IIOFMB huzuridagi TB tergovchisi sifatida boshlagan. Keyingi xizmat yillari Bulung‘ur va Samarqand tumanlarida kechdi. 2023-yildan buyon egallab turgan lavozimida ishlab kelmoqda.

– Kechqurun jam bo‘lishni yaxshi ko‘ramiz, – deydi Faxriddin. – Chalkash va murakkab hodisalarni tergov qilishga kelganda otam tez-tez maslahat beradi, akam ham amaliy tavsiyalarini qo‘shimcha qiladi. Axir, xizmatning barcha qiyinchiliklari va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqinlaringdan boshqa kim ham tushunishi mumkin.

Zamira BOLTAYEVA,
o‘z muxbirimiz.

IKKINCHI ISTE’DOD

DENGIZ BILMAGANIN TO‘LQIN BILAR

Podpolkovnik To‘lqin Qulnazarov hayotda nimagaki erishgan bo‘lsa, hammasini otasi Sulaymon aka bilan bog‘laydi. Jumladan, har bir ishga mas’uliyat bilan yondashishni, samimiylikni, barchaga yaxshilik sog‘inishni undan yuqtirgan. «Ichki ishlar organlari xodimi bo‘lishing kerak», deya bolaligidan yuragida sohaga muhabbat uyg‘otgan ham otasi.



Shu ma’noda oliy o‘quv yurtining imtiyozli diplomi qo‘liga tegishi bilan viloyat Ichki ishlar boshqarmasiga yo‘l olganda hech kim ajablanmadi. Bu yil egniga forma kiyganiga 27 yil to‘ladi. O‘tgan davrda u fidoyi va halol inson, hamisha suyansa bo‘ladigan ofitser sifatida hamkasblarining hurmatini qozondi, o‘nlab shogirdlar yetishtirdi.

Tabiiyki, mehnatlariga yarasha lavozimi oshdi, taqdirlandi. Chunonchi, ayni vaqtda viloyat IIB Huquqiy statistika va tezkor hisob-kitob ma’lumotlar markazi boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik.

Lavhamiz qahramonining hamkasblari havas qiladigan yana bir jihati bor. U shaxmat ishqibozi. Aytgancha, shatranjni ham otasidan 5 yoshida o‘rgangan. E’tiborlisi, mazkur yo‘nalishda maxsus bilimlarni olmagan bo‘lsa-da, havas qilgudek natijalarni qayd etmoqda. Binobarin, 13 yildan buyon viloyat ichki ishlar organlari, 8 yildan beri huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari o‘rtasida uyushtiriladigan an’anaviy musobaqalarda unga tenglasha oladigan topilmayapti.

Podpolkovnik shatranjni jangga qiyoslaydi, mulohazali, sabrli va sovuqqon shaxmatchi hamisha g‘alaba qilishini isbotlashga astoydil harakat qiladi.

To‘g‘ri, dona surmoqqa hamisha ham vaqt topa olmaydi. Lekin dam olish kunlari farzandlari, qo‘shnilar va xizmatdoshlar bilan bellashadi, charchog‘ini yozadi. Zafarga eltuvchi birorta kombinatsiyani muvaffaqiyatli qo‘llay olsa, qalbi zavqqa to‘lib ketadi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar
kapitan Mixli SAFAROV
Radik TUMPAROV

Mas’ul kotib
Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 822.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45177 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.